

BIR BO'LSAK — YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!

www.mv-vatanparvar.uz



# VATANPARVAR

HARBIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2024-yil 13-sentabr, №37 (3099)



OSMON-FALAKLARNING  
EGASI BURGUT,

BIR UMR  
SHAXTINGGA  
QILGANMAN HAVAS.

A. ORIPOV

**4-5** SERJANTLAR KORPUSINI  
RIVOJLANTIRISH — DAVR TALABI

**6** VATAN DEB YONGAN  
YURAK

**10-11** "OMMAVIY MADANIYAT"NING  
ZAMONAVIY KO'RINISHLARI



IJTIMOIIY-SIYOSIIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

**BIZ**  
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz

t.me/mv\_vatanparvar\_uz

t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

## KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH UMUMMILLIY HARAKATGA AYLANADI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 11-sentabr kuni kambag'allikni qisqartirish ishlarini keyingi sifat bosqichiga olib chiqish masalalari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.**

Bu yo'nalish mamlakatimizda 2020-yilda boshlangan edi. O'shanda 7,5 million yoki 23 foiz aholining daromadi kambag'allik chegarasiga yetmasdi. O'tgan yillarda 3,5 million odamni daromadli qilish orqali 2023-yil yakuni bilan kambag'allik darajasi 11 foizga tushdi.

Avvalo, ijtimoiy himoya qamrovi 4,5 karra kengaytirilib, o'tgan yili 12,3 trillion so'm yo'naltirildi. Pensiya va nafaqalar miqdori ham 1,5 baravar ko'paytirildi.

Mahallada kambag'allikni qisqartirish, tadbirkorlik loyihalariga 35 trillion so'm arzon kredit, 7 trillion so'm subsidiya berildi. Mahallalarni obod qilish, bog'cha, maktab, tibbiyot, yo'l, suv va elektr infratuzilmasi uchun 120 trillion so'm ajratildi. Shuningdek, 260 ming gektar yer 800 ming aholiga dehqonchilik qilib, daromad topishi uchun tarqatildi.

Yana bir misol – 2020-yildan buyon 3 milliondan 5 million so'mgacha oylik maosh oladigan ishchilar 2 barobar, 5 milliondan 7 million so'mgacha oluvchilar esa 3 barobar oshdi. Bularning natijasida kambag'allik darajasi yiliga o'rtacha 3 foizga kamayib boryapti.

Lekin bu boradagi ishlar hamma viloyat va tumanda ham bir xil emas. Masalan, o'tgan olti oyda Navoiy, Surxondaryo, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahrida o'zgarish bo'lmagan. 15 ta tumanda kambag'allik 20 foizdan yuqori.

16 ta tumanda aholiga bo'lib berilgan yerlarda 2–3 martadan hosil olingani hisobiga kambag'allik 2 karra kamaygan. Lekin 14 ta tumanda o'zgarish sezilmayapti.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, kambag'allikni faqat pul tarqatish, nafaqa to'lash bilan hal qilib bo'lmaydi. Buning uchun kambag'al oila a'zolarini o'qitish, kasbga o'rgatish va ish bilan ta'minlash muhim.

Bugungi kunda korxonalarda 250 mingta vakant bor. Lekin kambag'al oilalarning 35 foiz ishga layoqatli a'zolarida bilim va ko'nikma kam. Yana ayrimlari surunkali kasalliklar tufayli

tainli ishlay olmayapti. Kambag'al oilalarning 83 foizida tomorqa bor, lekin suv, elektr va yo'l bilan bog'liq muammolar qiyinchilik tug'diryapti.

Yig'ilishda shu kabi masalalar atroflicha tahlil qilinib, yangi vazifalar belgilandi.

Davlatimiz rahbari keyingi yillar uchun "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi tayyorlanayotganini ma'lum qildi. Unda yettita imkoniyat va mas'uliyat tamoyili asosida O'zbekistonning navbatdagi yangi yondashuvlari belgilab beriladi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi hokimliklar bilan birga bu yil har bir mahallani to'liq xatlovdan o'tkazib, "kambag'al oilalar portreti"ni ishlab chiqadi. Kambag'al oila bo'yicha individual dastur bo'ladi. Iqtisodiy kompleks oilalarni kambag'allikdan olib chiqish bilan shug'ullanadi. Bunda eng katta mas'uliyat tuman hokimlari va sektor rahbarlari zimmasida bo'ladi.

Odamlarning ishi yurishishi mahallalardagi sharoitga ham bog'liq. Shu bois kelasi yili mahallalar infratuzilmasini rivojlantirishga barcha manbalardan 1,6 milliard dollar ajratiladi. Buning bir qismi, avvalo, eng og'ir 300 ta mahallada suv nasoslari va quyosh panellari o'rnatishga beriladi. Yana 500 ta mahallada elektr, yo'l, internet va boshqa infratuzilma masalalari hal etiladi.

Bugun yurtimizda kamida 50 ta ish o'rni yaratgan 9 ming 200 ga yaqin tadbirkor bor. Ularning rejalarini qo'llab-quvvatlansa, faoliyatini kengaytirib, yana ishchi olishi mumkin.

Masalan, Andijon viloyatidagi 58 ta parranda korxonasi tuxum yetishtirishga 10 ming ehtiyojmand aholini jalb qilish, 660 ta baliq xo'jaligi kooperatsiya orqali yana shuncha ish joyi yaratish tashabbusini bildirgan.

Davlatimiz rahbari bunday loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha yangi tizim qilish va boshqa hududlarda ham kengaytirish yuzasidan topshiriqlar berdi.

Ikki yil avval Prezident farmoni bilan umumiy ovqatlanish sohasidagi tadbirkorlarga ijtimoiy soliqdan

imtiyoz berilgan edi. Buning natijasida qator korxonalar Toshkent, Samarqand va Andijonda 2 ming odamni ishli qildi. Shu imtiyoz yana 2 yilga uzaytirib berilsa, tadbirkorlar yana o'n minglab ehtiyojmand aholini ish bilan ta'minlashga tayyor.

Sanoatda eng ko'p ish o'rni yaratadigan tarmoq – to'qimachilik. Bu soha tadbirkorlari ham ikki yil avval tayyor trikotaj, bo'yalgan mato va gazlama korxonalariga ijtimoiy soliqdan berilgan imtiyozni uzaytirib berishni so'ragan.

Aholi bandligidagi ahamiyatini inobatga olib, mutasaddilarga bu sohalarga imtiyozlarni uzaytirish bo'yicha taklif kiritish topshirildi.

Agar korxonalar kambag'al aholini band qilsa, o'sha ishchiga ijtimoiy soliqdan imtiyoz yana uch yilga saqlanib qoladi. Ushbu imtiyoz nafaqat to'qimachilikka, balki barcha sohadagi korxonalariga beriladi. Bu orqali to'qimachilik, qurilish materiallari, charm-poyabzal, elektr texnikasi, oziq-ovqat, chorvachilik va qurilish tarmoqlarida yuz minglab kambag'al aholini ishli qilish mumkin.

O'tgan yillarda 260 ming gektar yer 800 ming aholiga dehqonchilik uchun ajratilgan edi. Endi yana 50 ming gektar yer 100 mingta kambag'al oilaga bo'lib berilishi aytiladi.

Ushbu yerlarda "kompaniya – kooperativ – dehqon xo'jaligi" tamoyili asosida dehqonchilik va bog'dorchilik tashkil etiladi. Bunda, Xitoy tajribasi asosida, yerdan uch xil daromad taqsimlanadi:

1) qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiruvchi va eksport qiluvchi katta kompaniya kambag'al oilalardan yerni ikkilamchi ijaraga oladi;

2) yoki yer egalari ulushdor sifatida kooperatsiyaga birlashib, kompaniyalardan buyurtma oladi va topilgan daromad ular o'rtasida taqsimlanadi;

3) har ikki holatda ham ushbu aholi yerda o'zi mahsulot yetishtirib, buning uchun oylik oladi.

Ya'ni kambag'al oila o'ziga berilgan yerdan yanada samarali

foydalanib, oylik olish bilan birga, ijara yoki dividenddan daromad ko'radi. Kompaniya esa bir konturda bir mahsulot yetishtirib, sifat va tannarxadan yutadi.

Bandlik loyihalarini amalga oshirishda mikromoliya xizmatlari ham muhim va bu boradagi imkoniyatlar kengaymoqda.

Endi 2024–2025-yillarda odamlar o'zini o'zi band qilishi, kichik va o'rta tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun mikrokreditlar ajratishga 10 trillion so'm beriladi. Shuningdek, kambag'al oilalarga 30 million so'mgacha uskuna, ko'chma do'kon, motoroller, skuter kabi vositalar 5 yilda bo'lib to'lash sharti bilan beriladi. Kambag'al oila farzandlariga kompyuter sotib olish uchun 5 yilga 2 yillik imtiyozli davr bilan foizsiz kredit ajratiladi.

Savdo-sanoat palatasi huzurida tadbirkorlarga ishchi topib, ularni tayyorlab beradigan markaz tashkil qilinadi. Kambag'al oila a'zolariga korxonalar talabiga mos ko'nikmalar o'rgatilib, ishga joylashtiriladi.

Har bir kambag'al oilada, ayniqsa, xotin-qizlar orasida oliy ma'lumotlilar bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. Buning uchun ular foizsiz ta'lim kreditlari, grantlar va boshqa moliyaviy yordamlar orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Umuman, davlatimiz rahbari bu maqsad juda keng ko'lamli ekani, unga barcha hissa qo'shishi kerakligini ta'kidladi.

– Bundan buyon kambag'allikni qisqartirish umummilliy harakatga aylanadi. Hukumatdan tortib, tuman tashkilotigacha barcha bo'g'indagi rahbarlarning kundalik ishi oilalarni kambag'allikdan olib chiqish bo'lishi kerak. Bu borada nazorat ham, so'rov ham qattiq bo'ladi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig'ilishda Bosh vazir o'rinbosari, viloyat va tuman hokimlari axborot berdi. Kambag'al oilalar uchun ajratilayotgan mablag'larning manzilliligi va samaradorligini oshirish, mas'ullarning bu boradagi ishlarini muhokama qilib, muammolarni hal etib borish yuzasidan vazifalar belgilandi.

## KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOINI IJTIMOIY HIMOYA QILISH MASALASINI YANGI BOSQICHGA KO'TARUVCHI HUJJAT

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 11-sentabrda "Kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi va uning ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.**

Farmonga ko'ra, kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi va uning ijrosi ustidan nazoratga mas'ul bo'lgan Bosh prokuror o'rinbosari lavozimi kiritiladi.

Bosh prokuraturaning tashkiliy-shtat tuzilmasida 7 ta shtat birligidan iborat Kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy

himoza qilish sohasida qonunchilik ustidan nazorat boshqarmasi tashkil etiladi.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalarida jami 28 ta shtat birligidan iborat Kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida qonunchilik ustidan nazorat bo'linmalari tashkil etiladi.

Yangi kiritilayotgan Bosh prokuror

o'rinbosari zimmasiga qator vazifalar yuklatiladi. Xususan, har haftada kamida bitta tuman (shahar)ga borib, kambag'al oilalarni reyestriga kiritish va chiqarishning haqqoniyligini o'rganadi. Kambag'al oilalarga berilayotgan mablag'lar egasiga manzilli yetib borishini nazorat qiladi.

Shuningdek, kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida zimmasiga yuklatilgan

vazifalarni lozim darajada bajarmagan mas'ullarga nisbatan qonun ustuvorligi va jazo muqarrarligini ta'minlaydi. Ijtimoiy himoya va kambag'allikni qisqartirish sohasida qabul qilinayotgan qonunlar talablari, Prezidentning farmon va qarorlarida belgilangan topshiriqlar ijrosini nazorat qilish ham yangi kiritilayotgan Bosh prokuror o'rinbosari zimmasida bo'ladi.

# DEMOKRATIK SAYLOVLAR

## FUNKSIYALARI VA ASOSIY TAMOYILLARI



Saylovlar demokratik jamiyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular fuqarolarning siyosiy xohish-irodasini ifoda etish orqali hokimiyat va boshqaruv organlarini shakllantirish mezonini hisoblanadi. Saylovlar natijasida saylangan nomzodlar hokimiyat vakolatlariga ega bo'lishadi. Saylovlar keng (*umumxalq*) va tor (*jamoaviy*) miqyosli bo'lishi mumkin. Keng miqyosli saylovlarda davlat hokimiyatining oliy vakillik organlariga nomzodlar saylanadi. Tor miqyosli saylovlar davomida turli demokratik institutlar va tashkilotlar, siyosiy partiyalar va harakatlar, ko'ngilli jamiyatlar, aksiyadorlik kompaniyalari, kasaba uyushmalari va boshqa shu kabi jamoalarning boshqaruv organlariga nomzodlar saylanadi.

Saylovlar vakillik demokratiyasi sharoitida keng qo'llaniladi va aksincha, bevosita demokratiya sharoitida esa saylovlarning ahamiyati unchalik yuqori emas. Chunki bevosita demokratiya sharoitida hokimiyat saylangan vakillar orqali emas, balki fuqarolarning bevosita ishtiroki orqali amalga oshiriladi. Buni Qadimgi Afina davlati misolida ko'rish mumkin. Bu yerda respublika ahamiyatiga molik eng muhim masalalar – jumladan, soliqlarning miqdori, urush va tinchlik masalalari, sudyalalar va harbiy qo'mondonlarni almashtirish, hududiy yaxlitlik kabi masalalar barcha fuqarolarning ishtirokida hal qilingan.

Hozirgi jamiyatlarda Qadimgi Afina respublikasiga o'xshab barcha fuqarolarni bir maydonga to'plab, u yoki bu masalaga doir ularning fikrini bilish juda murakkab ish hisoblanadi. Shuning uchun ham oldin xalqning vakillari saylab olinadi va undan so'ng ana shu vakillar xalq nomidan hokimiyatni amalga oshiradi. Bu esa saylovlarning yuqori ahamiyatga ega ekanidan dalolat beradi.

Zamonaviy demokratiya sharoitida saylovlar xalq suverenitetini va xalqning hokimiyat manbai sifatidagi rolini namoyon etishning asosiy shakli hisoblanadi. Shuningdek, saylovlar turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini hokimiyat organlarida aks ettirishda muhim o'rin tutadi. **Umumxalq saylovlari har bir fuqaroni jamiyat taqdiriga beparvo bo'lmaslikka undaydi.** Aksariyat fuqarolar uchun saylovlar jamiyat siyosiy hayotida

ishtirok etishning birdan bir vositasi hisoblanadi. Aynan saylovlar orqali oddiy fuqarolar hokimiyatga ta'sir etish, Parlament va hukumat a'zolarini almashtirish, ularning xalq oldidagi javobgarligini ta'minlash, siyosiy kursni o'zgartirish imkoniga ega bo'ladi.

**Saylovlarning funksiyalari. Ilmiy adabiyotlarda saylovlarning quyidagi funksiyalari ajratib ko'rsatilgan:**

**1. Aholining turli-tuman manfaatlarini ifodalash, ya'ni artikulyatsiyalash va agregatsiyalash funksiyasi.** Saylovlar fuqarolarning o'z manfaatlarini anglab olishlari va ushbu manfaatlarning siyosiy partiyalar va alohida nomzodlar dasturlarida ifodalanishi uchun qulay zamin yaratadi. Siyosiy partiyalar va alohida nomzodlar o'z saylovoldi platformalarida eng muhim va dolzarb muammolarga katta e'tibor qaratadilar va nomzodlarning ishonchini qozonishga harakat qiladilar. Garchi deputatlarning ayrimlari saylovoldi kampaniyasi davomida bergan va'dalarini qisman yoki butunlay unutib qo'ysalar-da, biroq, umuman olganda, deputatlar axloqiy me'yorlar doirasida harakat qiladilar, zimmlaridagi majburiyatni sharafla bilan bajarishga, o'z partiyalarining obro'sini to'kmaslikka va navbatdagi saylovlarga munosib qatnashishga intiladilar.

**2. Hokimiyat institutlari ustidan nazorat qilish funksiyasi.** Saylovlar natijasida hukumat ustidan nazorat

qiluvchi muhim institut – parlament vujudga keladi. Bundan tashqari, saylovlarning o'zi ham qaysidir ma'noda nazorat instituti bo'lib, saylovchilarga hukumatni qisman yoki butunlay yangilash, hukumat tarkibiga muhim tarkibiy o'zgartirishlar kiritish, mavjud siyosatni o'zgartirish imkonini yaratadi.

**3. Turli qarashlarni jipslashtirish va umumsiyosiy irodani shakllantirish funksiyasi.** Zamonaviy jamiyatda plyuralizm, ya'ni fikrlar xilma-xilligi haddisiz-hududsiz emas. U anarxiyaga, boshboshdoqlik va ijtimoiy inqirozga olib bormasligi uchun davlat tomonidan boshqarilishi zarur. Saylovlar yordamida ko'pchilik fuqarolarning muayyan siyosiy platformaga ega bo'lishlari va uning liderlari atrofida birlashuvi ta'minlanadi, hukmron siyosiy iroda aniqlab olinadi. Ushbu siyosiy irodaning ifodalanishi hukumatga kuch va nufuz baxsh etadi hamda uning ishchanligini oshiradi.

**4. Siyosiy tizimni legitimlash va barqarorlashtirish funksiyasi.** Saylovlar fuqarolar ishonchini oqlamagan hukumatni almashtirish imkonini beradi. Aks holda muayyan hukumat va u olib borayotgan nooqil siyosat tufayli fuqarolar butun siyosiy rejimni rad etishlari mumkin. Demak, saylovlar siyosiy tizimning beqarorlashuvi va buhronga yuz tutishiga yo'l qo'ymaydi hamda inqiroz holatlari, inqilobiy harakatlar, destruktiv intilishlarning oldini olishga xizmat qiladi. Saylovlar yordamida nafaqat siyosiy tizim, balki parlament, hukumat va boshqa hokimiyat strukturalari legitimlashadi, ularning davlatni boshqarishdagi huquqi tan olinadi.

**5. Hokimiyat institutlari va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kengaytirish funksiyasi.** Saylov jarayonida nomzodlar muntazam ravishda fuqarolar bilan uchrashadilar, ularni qiziqtirayotgan yoki qiynayotgan muammolarni eshitadilar, o'z saylovoldi dasturlariga tuzatishlar kiritadilar. **Saylovlar fuqarolar va hokimiyat o'rtasidagi o'zaro muloqot uchun muhim kanal hisoblanadi.** Saylovlar tufayli davlat

rahbarlari va aholi o'rtasida o'zaro ishonch, tushunish va hamjihatlik vujudga kelishi mumkin.

**6. Tinch yo'llar orqali siyosiy mojarolarni hal qilishga yo'naltirish funksiyasi.** Saylovlar qarama-qarshi manfaatlar, qadriyatlar, g'oyalarni xalqning ochiq hukmiga havola etadi, ijtimoiy fikr kuchi va davlat institutlarining nufuzi orqali qarama-qarshi tomonlarni keskin qarorlar chiqarish, radikal talablarni ilgari surish va noqonuniy xatti-harakatlardan foydalanishdan saqlanishga undaydi.

**7. Saylovchilarni dolzarb ijtimoiy vazifalarni hal qilishga safarbar etish funksiyasi.** Fuqarolarga o'z dasturini tushuntirish, odamlarni u yoki bu siyosiy qadriyatlar va maqsadlarni qabul qilishning nechog'li muhim ekaniga ishonitirish, ularni amalga oshirish usullarini ko'rsatib berish orqali partiyalar va alohida nomzodlar aholining keng qatlamlari va ijtimoiy fikrni mamlakat uchun muhim bo'lgan ishlarni bajarishga safarbar etadilar.

**8. Aholini siyosiy ijtimoiylashtirish, uning siyosiy ongi va madaniyatini yuksaltirish funksiyasi.** Saylov jarayonida fuqarolar siyosiy qadriyatlar va me'yorlarni yanada ko'proq o'zlashtiradilar, siyosiy bilim va tajribalarini kengaytiradilar. Saylov jarayonida siyosiy axborot va tashviqotlarning hajmi keskin oshadi, turli-tuman siyosiy-tarbiyaviy ishlar ko'lami kengayadi, odamlarning e'tibori dolzarb siyosiy muammolar va ularni hal qilish yo'llariga jalb qilinadi. Saylovchilar munosib nomzodlarni tanlash bilan parallel ravishda o'zlari ham ma'lum ma'noda muayyan siyosiy kuch tarafdori ekanliklarini his etadilar.

**9. Siyosiy elitani yetishtirib berish funksiyasi.** Saylovlar fuqarolar ichidan siyosiy elita saffariga kirishi mumkin bo'lgan iqtidorli shaxslarni aniqlashda katta yordam beradi. Saylovlar natijasida elita saflari yangilanadi, siyosiy partiyalar va vakillarining siyosiy hayotdagi vazni ham o'zgaradi.

**10. Muqobil siyosiy dasturlarning o'zaro raqobati asosida jamiyatning yangilanishiga erishish funksiyasi.** Saylovlar – oddiy fuqarolarning davlat va jamiyatga tartiblashgan holda ta'sir o'tkazish omili demakdir. Turli-tuman siyosiy kuchlar ijtimoiy muammolarni aniqlab, ularning yechimi borasida saylovoldi dasturlarini tuzib chiqadilar. Buning natijasida saylovchilar bir nechta dasturlar ichidan eng yaxshilarini tanlab, ular uchun ovoz berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa samarasiz siyosiy dasturlar o'rniga yangi, hayotbaxsh siyosiy dasturlarning qabul qilinishini ta'minlaydi.

Saylovlarning yuqoridagi funksiyalari faqat ular demokratik tarzda tashkil qilingan taqdirda to'la amal qiladi. Saylovlar demokratik jamiyatdagina o'zini to'liq namoyon qilishi mumkin, chunki saylovlar demokratiyaning umumiy konsepsiyasi va qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, demokratiyaning asosiy tamoyillaridan biri ham davriy va adolatli saylovlar hisoblanadi.

Mayor Abduqodir OTABOYEV,  
Qurolli Kuchlar akademiyasi  
katta o'qituvchisi, s.f.f.d. (PhD),  
dotsent



# SERJANTLAR KORPUSINI RIVOJLANTIRISH —

Serjantlar – armiyamiz tayanchi. Bu ibora o'z-o'zidan paydo bo'lmagan, albatta. Chunki turli murakkablikdagi o'quv mashg'ulotlarida ham, jangovar vazifalarni bajarishda ham serjantlar korpusining alohida vazifasi bor. Ularning fidoyiligini, jonkuyarligini butun dunyo armiyalarida kuzatish mumkin. Xususan, O'zbekiston Qurolli Kuchlarida ham serjantlarning o'z o'rnini va ahamiyati bor.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining professional serjantlar korpusi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan Mudofaa vazirligi qo'shinlarida yangi "bosh serjant" va "bosh serjant yordamchisi" lavozimlari joriy etildi. Ular serjantlar tarkibiga mansub kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar orasidan alohida tanlov asosida saralab olindi.

Xo'sh, bu yangi lavozimlarni joriy etishdan qanday maqsadlar ko'zda tutilgan? Dastlab shu savolga javob izlaymiz. Demak:

- Mudofaa vazirligi qo'shinlarida professional serjantlar korpusi faoliyatini takomillashtirish va harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligi darajasini oshirish;

- shaxsiy tarkibning mutaxassisliklar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini tizimli ravishda oshirib borishni tashkillashtirish orqali doimiy ravishda qo'shinlarning jangovar shayligini yuqori darajada ushlab turish;

- harbiy jamoalarda yuqori axloqiy-jangovar muhitni yaratish, harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarlik dasturini samarali o'zlashtirishlari uchun zarur sharoitlar yaratish;

- serjantlar lavozimlaridagi harbiy xizmatning maqomi va nufuzini oshirish hamda ularning qo'shinlardagi ahamiyati va tarbiyaviy rolini kuchaytirish;

- harbiy xizmatchilarni egallab turgan mutaxassisliklari bo'yicha kasbiy bilim va mahoratlarini oshirish hamda qo'shinlarda yuqori ma'naviyatli, harbiy-vatanparvarlik tuyg'ulari va shaxsiy mas'uliyat hissi yuksak bo'lgan harbiy xizmatchilarni shakllantirish.

Hozirgi kunda joriy etilgan ushbu yangi lavozimlarga alohida saralash jarayonlaridan muvaffaqiyatli o'tgan serjantlar tarkibiga mansub kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar tayinlandi. Ular markaziy apparatda Mudofaa vazirligi bosh serjanti, bosh serjant yordamchilari, harbiy okruglarda bosh serjant va bosh serjant yordamchilari, harbiy qism, batalyon va vzwodlarda tegishlilik bo'yicha bosh serjant lavozimlarida o'z faoliyatlarini boshladi.

- Ushbu yangi lavozimlarni joriy etishda bir qancha xorij armiyalari, xususan AQSh, Britaniya, Turkiya, Ozarbayjon va boshqa davlatlardagi





## DAVR TALABI



serjantlar korpusi faoliyatini puxta o'rgandik. Natijada shu narsa oydinlashdiki, kundan kun yangilanib, rivojlanib borayotgan harbiy taktikalarni o'zlashtirishda, ularni qo'shinlarga joriy etishda serjantlarning boy tajriba va malakasidan samarali foydalanish yaxshi natija bergan. Shu bois yangi lavozimlarga tayinlangan harbiy xizmatchilardan ko'p narsa kutilyapti. Ular qo'shinlarda yuqori malakaga ega, professional tayyorgarligi yuqori bo'lgan tajribali serjantlar tarkibidan saralab olindi, – deydi podpolkovnik G'ulomnazor Nazriddinov. – Sodda qilib aytadigan bo'lsak, bosh serjant va bosh serjant yordamchilari komandirlarning bevosita yordamchisi va maslahatchisi bo'lib, ofitserlar va serjantlar korpusini bog'lovchi ko'prik vazifasini o'taydi. Ular lavozimlarga tayinlanishdan avval Qurolli Kuchlar akademiyasi va Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida alohida o'quv metodi asosida tahsil olishdi. Yana shuni ta'kidlab o'tishni istardimki, bu lavozimlarga tayinlangan aksariyat harbiy xizmatchilarimiz jangovar harakatlarda bevosita ishtirok etgan. Demak, ular qo'shinning jangovar tayyorgarligini oshirish, jangovar vaziyatlarda komandirlarga muhim tavsiya va maslahatlar berish ko'nikmasiga ega.

Milliy armiyamizdagi bu yangilikdan qo'shinni xabardor qilish, ular faoliyati bilan bevosita tanishish maqsadida Mudofaa vazirligi bosh serjanti Alisher Mirzakarimov va uning

qo'shin turlari bo'yicha yordamchilari hamrohligida Toshkent harbiy okrugi tasarrufidagi harbiy qismlar va "Chirchiq" dala-o'quv maydonida bo'ldik.

Qayd etish joizki, harbiy xizmatchilarning kundalik faoliyatini to'g'ri tashkil etish va qo'shinlarda o'tkazilayotgan jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarida ular ishtiroki juda muhim. Chunki yangi xizmatga chaqirilgan yosh harbiy xizmatchilarning moslashuv davri, ularning mashg'ulotlarga tez kirishib ketishi, harbiy jamoalardagi muhit, mashg'ulotlardagi samaradorlik; bularning barida bosh serjant va bosh serjant yordamchilarining o'rni va ahamiyatini sezish qiyin emas.

– Biz qo'shinlarda xizmat qilayotgan har bir serjant va askarning har qanday vaziyatda, istalgan hududda, istalgan vaqtda va istalgan sharoitda jangovar vazifani nuqsonlarsiz, talafotlarsiz bajarishiga erishishni maqsad qilganmiz va bu yo'lda bor kuch-g'ayratimizni safarbar etamiz, – deydi Mudofaa vazirligi bosh serjanti yordamchisi serjant-mayor G'iyos Ro'ziyev. – Faoliyatimiz davomida qo'shinlardagi jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarida bevosita ishtirok etib, ularni takomillashtirish, rivojlantirish va yangi usul va uslublarni joriy etish bo'yicha yuqori qo'mondonlikka o'z taklif hamda tavsiyalarimizni berib kelyapmiz. Natijada esa ba'zi bir-birini takrorlovchi, samaradorligi yuqori bo'lmagan mashg'ulot turlaridan voz kechyapmiz. Ularning o'rini esa yangi va zamonaviylari bilan to'ldiryapmiz. Albatta, hali zimmamizda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar juda ko'p. Chunki kechagi taktika bugunga, bugungisi esa ertaga to'g'ri kelmay qolayotgan tezkor, shiddatli zamonda yashayapmiz. Shu bois biz tinimsiz harakat va izlanishdamiz.

Joriy etilgan yangi tizim va unda faoliyat yuritayotgan harbiy xizmatchilarga ulkan zafar va muvaffaqiyatlar tilaymiz.

**Katta leytenant  
Islomjon QO'CHQOROV,  
"Vatanparvar"**



# VATAN DEB YONGAN

## yurak

birimiz bir hafta davomida eng ko'p a'lo baho olsak, haftaning oxirida istagimizdan kelib chiqib, aytgan narsamizni olib berardilar.

Umuman olganda, dadamning boshqa otalarga ibrat, o'nak qilib ko'rsatishga arzigulik sifatleri, fazilatleri bisyor. Muhimi, biz, farzandlar dadamdan bir otaning farzandlarga beradigan mehridan ham ortiqroq mehri ko'rdik, buning uchun dadamdan minnatdorman.

### Ustozlar sabog'i

– Men kontrakt bo'yicha xizmatni boshlagan kezlirimda yangi batalyon tashkil qilingani haqida eshitdik. Unga eng sara harbiy xizmatchilarni tanlash boshlaganida rahmatli ustozim polkovnik O'ktam Karimov menga ham shu batalyonga o'tishni maslahat berdi. Chunki men sportchi edim. Yengil atletika bilan shug'ullandim. Yugurish bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda doim faxrli o'rinlarni qo'lga kiritardim. Shunday qilib xizmatimni boshladim. Yosh, g'o'r, tajribasiz edim. Shunday vaqtda men katta praporshik Nabijon Saksonovdan soha bo'yicha ko'p narsani o'rgandim. Jamoada o'rin topdim. Ustozimning malakasi, tajribasiga doim havasim kelardi. Nabijon akaday bo'lishga intildim. U kishi nafaqat harbiy xizmatchi, balki insoniy fazilatleri tufayli ham mehrimni qozongan. Shu o'rinda menga maktabda saboq berib, katta hayotga yo'llagan ustozlarimga ham rahmat aytaman. Chunki mehridaryo bu insonlardan o'rganganlarim ko'p.

### Shogirdlar yutug'i

– Bugun men ham ustoz maqomidaman. Shogirdlarim ko'p. Ularning xalqaro musobaqalarda erishayotgan yutuqlaridan ko'ksim tog' qadar yuksalmoqda. Masalan, shogirdlarim – katta serjant Sardor Mamarasulov, I darajali serjant Xayrullo Olimov, III darajali serjantlar Azamat Kenjayev, Muhriddin Ochilov, Abdurasul Tuyg'unov Amerika Qo'shma Shtatlarida o'tkazilgan "Eng ilg'or jangchi" musobaqasida rekord o'rnatishdi va faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi. III darajali serjant Abzal Ismoilov ham Koreya Respublikasida

o'tkazilgan "Taktik o'qchi" xalqaro musobaqasida 1-o'rinni olib qaytdi. Bundan tashqari yana ko'p shogirdlarim turli xalqaro musobaqalarda faxrli o'rinlarni qo'lga kiritib, yuzimizni yorug' qildi. Ularning yutug'i, muvaffaqiyati bardavom bo'lsin, deymen.

### Vatan tuyg'usi – bu...

– 1999-yilda Botkenda, 2000-yilda mamlakatimizning janubiy sarhadlari bo'lgan Sariosiyo va Uzun tumanlarida hamda 2005-yilda Andijonda bo'lib o'tgan jangovar harakatlarda ishtirok etganman. Qancha safdoshlarimizdan ayrilganmiz... Hozir xayolimdan o'sha og'ir kunlar kino tasmasidek bir-bir o'tyapti. U kunlarni eslash ham azobli...

Shukurki, bugun tinchlik zamonida yashayapmiz. Atrofga boqib qalbimizda ajib hislar jo'sh ura boshlaydi: qushlar sayrog'ida, shamol qanotlarida, yomg'irning har tomchisi, daraxtlarning har bargida, suvning qatras-yu qunning zarrasida Vatan sehrini his qilamiz. Bunda olgan nafasimiz vujudimizga orom beradi, ichgan suvimiz tomirlarimizga hayot baxsh etadi... Bu sehr, bu joziba, qalblarda Vatan tuyg'usini alangalatadi. Aslida Vatan tuyg'usi shunday ulkan qudratga egaki, u insonni doim tug'ilib o'sgan yurti uchun jon kuydirishga undaydi. Zotan, ajdodlar jasorati, dorilamon kunlar saodati shu Vatanda umrguzaronlik qilayotgan har bir vatanparvar insonga cheksiz kuch, g'ayrat bag'ishlaydi. U qay kasb egasi, qaysi soha vakili bo'lmasin yurt ravnaqi, farovonligi uchun yurak qo'rini berib mehnat qiladi. Yurtdoshlarimiz qalbidagi yaratuvchanlik hissini alangalash va zaminimizdagi osoyishtalikni, tinchlikni saqlash esa bizning zimmamizda. Demak, biz harbiylar tun-u kun o'z vazifamizni sharaf bilan ado etishimiz lozim.

### Mukofotdan ruhlanib

– Davlat mukofotini shaxsan Hurmatli Prezidentimizning qo'llaridan qabul qilib oldim. Bu juda hayajonli edi. Davlat rahbari meni tabriklab, "Yodgor bolam, bundanam yuksak mukofotlarni shaxsan topshirish nasib qilsin", deganlarida ruhlanib ketdim. Prezidentimiz menga shunday yuksak ishonch bildirayaptimi,

demak, to tanda jonim bor ekan, bu ishonchni albatta sharaf bilan oqlashga so'z beraman!

### "Oilam – baxtim"

– Ostonadan uyga kirishim bilan qalbimda o'zgacha halovat sezaman. Bu hisni oilasida baxt topgan insonlar yaxshi anglaydi. Mana turmush o'rtog'im Mushtariyxon bilan baxtli turmush kechirib kelyapmiz. Farzandimiz Mubinaxon ayni vaqtda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida tahsil olyapti. U bolaligidan iqtidorli edi. Shu bois uni uch yarim yoshligidayoq raqs to'garigiga berganmiz. Yaqin-yaqingacha o'qish bilan birga taniqli raqs dastasida faoliyat yuritdi. Qizim raqqosa va aktrisa ham. Ayni vaqtda "Opa-singillar" serialida bosh rollardan birini ijro etyapti. Mubinaxonning san'atda erishayotgan yutug'i, oilamdagi xotirjamlik, meni doim Vatanimga sadoqat bilan xizmat qilishga undaydi.

### Biz paytdan foydalanib Yodgor Atanayevning turmush o'rtog'i Mushtariyxonni ham suhbatga tortdik.

– Turmush o'rtog'im ochiqko'ngil, mehribon inson, – deydi Mushtariyxon. – Fikrlarimni hurmat qiladi. Oilaga muhabbati o'zgacha. Farzand tarbiyasiga e'tiborli. Men ularning bu xislatlarini qadrlayman. O'tgan yillar davomida turmush o'rtog'im Vatanimizning turli olis hududlarida xizmat qildi. U vaqtlarda harbiy xizmatchilarning oilalari uchun hozirgidek shart-sharoit yaratilmagan, harbiy shaharchalar qurilmagandi. Suv, gaz yo'q joylardayam yashadik. Masalan, biz Pachkamarda to'rt xonali uyda uchta harbiy oila yashaganmiz. Suvni sotib olardik. Bolalar maktabga o'n, o'n besh kilometr uzoqqa borardi. Men shaharda katta bo'lgan qiz edim. Lekin turmush o'rtog'imning mehr-muhabbati tufayli, har qanday qiyinchilikni yenga oldim. Darvoqe, yaqinda xo'jaynimdan eshitdim. Hozir Pachkamarda sharoit butunlay boshqacha ekan. U yerda harbiy shaharcha barpo etilibdi. Shaharchaning ichida bog'cha, maktab qurilibdi. Xullas, shart-sharoitlar shaharnikidan qolishmas ekan. Turmush o'rtog'im aytganlaridek, bugun shukronalik bilan xizmat qiladigan davrlar keldi...

Men taqdirimga shunday inson bitilganidan xursandman. Ahil-inoqlikda farzand katta qilyapmiz. Ilohim uning kamolini ko'rish nasib qilsin.

**Podpolkovnik  
Gulnora XODJAMURATOVA**

Muborak ayaning tug'uruq vaqtida to'satdan olamdan o'tishi butun oilani esankiratib qo'ydi. Ayniqsa, Omadjon aka gangib qoldi. Yangi tug'ilgan chaqaloqdan tashqari yana beshta yosh bolani katta qilish, ularga ham ota, ham ona bo'lish mas'uliyati...

Shunday qiyin vaziyatda akaning joniga singlisi Karomatxon ora kirdi. "Men Yodgorjonni katta qilib beraman", dedi u erkakning ko'ngliga tegmaydigan ohangda. "Aka, siz ham eplashingiz mumkin lekin, chaqaloqqa ayol qarovi, parvarishi kerak. Xavotirlanmang, men uni o'z bolamday ko'raman. Hali ko'rasiz, u pahlavonday o'g'il bo'ladi. Shunday farzand bo'lsinki, kamolidan faxrlanib yuraylik. Ilohim umri uzoq bo'lsin. Qiyinchiliklarimiz ortda qolsin..."

Oradan qancha suvlar oqib o'tdi. Yodgorbek aqlli, hushli bo'lib voyaga yetdi. Bolaligidan harbiy kasbga havas bilan ulg'aygan yigit, vaqtlar kelib taqdirini shu soha bilan bog'lashga ahd qildi. Shu bois muddatli harbiy xizmatdan so'ng xizmatini kontrakt bo'yicha davom ettirdi. U intiluvchan va tirishqoq edi. Qaysi jamoada xizmat qilmasin uning nomi doim ilg'orlar safida tilga olinardi, boshqalarga o'nak qilib ko'rsatilardi. Vatan uchun qilingan xizmat hech qachon beiz ketmaydi deydi. Haq gap. Chunki vaqtlar keldiki, Yodgorjonning kasbga bo'lgan sadoqati, jonkuyarligi ham munosib e'tirof etildi.

U eng birinchilar qatorida serjant-mayor harbiy unvoniga ega bo'ldi. Yanada quvonarlisi, Mudofaa vazirligi bosh serjant yordamchisi serjant-mayor Yodgorbek Atanayev Vatanimiz mustaqilligining 33 yilligi munosabati bilan yuksak davlat mukofoti – "Jasorat" medali bilan taqdirlandi.

### "Dadamdan minnatdorman"

– Andijon viloyatining Paxtaobod tumani Madaniyat qishlog'ida tug'ilganman, – deydi suhbatdoshimiz serjant-mayor Yodgorbek Atanayev. – Dadam o'qituvchi edi. Tumanimizdagi 28- va 29-umumta'lim maktablarida fizika va astronomiya fanlaridan dars bergan. Xushmuomala, bag'rikeng inson edi (*nega edi, deb o'tgan zamonda gapirishimning boisi dadam 2017-yilda olamdan o'tdi*). Hech qachon bizga ovozini balandlab gapirganini esolmayman. Mening hayotda o'z o'rnimni topishimda, biror maqsad sari olg'a intilishimda dadamning xizmati, hissasi beqiyos deb bilaman. Chunki u kishi farzand tarbiyasiga juda talabchan edi. O'qituvchilarimiz beradigan uy vazifalarini o'z vaqtida va to'g'ri bajarishimizni har kuni nazorat qilib borardi. Hech qachon bo'sh vaqtimizning besamar ketishiga yo'l qo'ymasdi. Dadam uyda shunday an'anani yo'lga qo'ygandi: farzandlardan qaysi

Askar bo'lar yigiting mardi

# QATORDAGI NORLAR

Vatan oldidagi ulug' vazifalardan biri shubhasiz askarlikdir. Biroq barcha o'g'lonlarimizga ham bu sharaf nasib etavermaydi.

Vodiyga mehnat ta'tiliga borganimda o'g'li milliy armiyamiz safida muddatli harbiy xizmat o'tayotgan onaning g'urur bilan o'g'li askarlik xizmatida ekanini aytayotgani qulog'imga chalindi. Yonidagi ayollarning unga havas ila qarab turganidan ayon bo'ldiki, har bir ota-ona farzandini armiya maktabida haqiqiy yigit bo'lib toblanishini istaydi.

Bahorning ilk oylarida muddatli harbiy xizmatga munosib topilgan o'g'lonlar bugun yaqinlari orzu qilganidek, qaddi tik, qadamlari chaqin, xizmat sinovlarida toblangan tinchlik himoyachilariga aylangan. Ularning kelajak orzu-maqсадlari ham o'ziga xos, ya'ni teran va salmoqli. Ushbu maqolamizda mana shu qatordagi norlar – askar posbonlar haqida so'z yuritimiz.



**Boburjon SHOKIROV**

## MAQSADI YUKSAK O'G'OLON

– Har gal dadil qadam tashlab ketayotgan jiddiy qiyofadagi harbiy xizmatchilarni ko'rganimda Vatan himoyachisi bo'lishni orzu qilganman, – deydi Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan oddiy askar Boburjon Shokirov. – Muddatli harbiy xizmatga kelib, orzum maqsadga aylandi. Harbiy sohaga qiziqqanim sabab, xizmatga moslashuv jarayoni menga qiyinchilik tug'dirmadi. Askarlikning qat'iy tartibi – harbiy Nizom talabiga rioya qilish, harbiy libosga e'tiborli bo'lishdan tortib, saf tayyorgarligi, ya'ni qomatni tik tutish, harbiycha qadam tashlash, Vatanga qasamyod burchini mag'rur

ado etish kabi ko'nikmalarning barchasi biz askarlarning irodamizni tobladi.

Ayniqsa, harbiy quroldan dala o'quv maydonida ilk bor mo'ljalga olish mashqini bajarganimda o'zgacha tuyg'uni his etdim. Buni askar bo'lgan yigitlargina anglay oladi. Xizmat davomida harbiy sohani egallash oson emasligini tushundim. Albatta, zimmasida ulkan majburiyat bo'lgan Vatan himoyachisi o'zgacha bo'lishi ham mumkin emas. Ayni fursatda komandirlarimiz tomonidan o'tkazilayotgan nazariy va amaliy mashg'ulotlarni qiziqish va sabot bilan o'zlashtirib boryapmiz. Mashg'ulotlarda yetakchi bo'lishimizda guruh komandiri I darajali serjant Said Haydarov yaqindan yordam beryapti. Muddatli harbiy xizmatni chin yurakdan o'tab, kontrakt bo'yicha davom ettirmoqchiman.

Boburjon haqida safdosh do'stlari – oddiy askar Muhammadali Tojiboyev, Muhammadaziz To'liqinovlar ijobiy fikrlar bildirib o'tishdi. Ya'ni uning do'stlariga jonkuyarligi, mashg'ulotlarda yetakchi va jamoatchilik ishlarida faolligi, harbiy xizmat sohasiga bo'lgan yuksak ishtiyoqi... Darhaqiqat, istiqbolini Vatan himoyachisi bo'lishdek yuksak maqsadga bog'lagan oddiy askar Boburjon Shokirov harbiy sohada qad rostlaganda ham maqolalar tayyorlasak ajabmas.



**Asilbek AHADOV**

## OTA-ONA ISHONCHI

– Onasi, askar o'g'lingni ko'rib kelgandan buyon kayfiyating ko'tarinki, erkatoynigini rosa sog'ingan ekansan-da, a?  
– Erkatoy demang, u endi haqiqiy yigitlar qatoridagi askar, – Asad akaga mamnun javob qaytardi Zulfiya opa.  
– To'g'ri aytasan, xotin, Asilbek "ro'z bo'lsalaring harbiy xizmatni kontrakt bo'yicha davom ettirmoqchiman", deganda xursand bo'lib ketdim. Agar harbiy sohada o'rin topa olsa, qishlog'imizda

birinchi harbiy xizmatchi bo'ladi-da, o'ziam.

– Aytganingiz kelsin, o'g'limiz askarlik burchini yaxshi o'tab, astoydil harakat qilsa, albatta niyatiga yetadi...

Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan oddiy askar Asilbek Ahadovni bugun safdoshlari orasida o'z o'rnini bor. Albatta, bunga erishishning o'zi bo'lmaydi. Xizmatning ilk sinovlarini matonat ila yengib o'tish, o'zlashtirish, safdoshlari bilan til topishish, nazariy va amaliy mashg'ulotlarda yetakchi bo'lish...

– Maqsad sari intilgan inson hamma narsaga erishishi mumkin, – deydi Asilbek askarlik burchi haqida so'z ketar ekan. – Albatta, zimmamdagi vazifani talab darajasida egallab borishimda komandirlarimning o'rnini katta. Shuningdek, xizmat sinovlarida askariy birodarlik muhim o'rin tutishini anglab yetdim, do'stlar orttirdim. Eng asosiysi, harbiy xizmatchi bo'lish orzum maqsadga aylandi. Bunga erishish oson emasligini bilaman, ammo ortga chekinmayman. Chunki Vatan himoyachisi bo'lish men uchun sharaf!



**Ibrohim NE'MATOV**

## RASM CHIZISHDA UNGA YETADIGANI YO'Q

Jizzax viloyatining Forish tumanida Bog'don mahallasi bor. Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Ibrohim Ne'matov shu go'shada tug'ilib voyaga yetgan. Jizzax shahridagi san'at kollejida tahsil olgan yigit yaxshigina mo'yqalam ustasi ekanidan voqif bo'ldi. Bu borada safdoshlari "rasm chizishda Ibrohimga yetadigani yo'q", deya qayta-qayta takrorlashdi. Shuningdek, u ikki yil davomida sportning qo'ljangi yo'nalishida saboq olgan. Ijodkor va sportchi yigit bugun Vatan himoyachilari safida. Oddiy askar Ibrohim Ne'matov posbonlik burchi va ko'nikmalari haqida nima deydi, eshitamiz:

– Ayni damda men va safdoshlarimning o'zimizga bo'lgan

ishonchimiz mustahkam, deya ayta olaman. Bunday deyishimga sabab, xizmatga ilk kelgan damlar bilan hozirgi holatimiz o'rtasida juda katta farq bor. Chunki o'tgan oylar davomida harbiy xizmat ko'nikmalarini bosqichma-bosqich o'zlashtirib, sinovlarda toblanib kelmoqdamiz. Albatta, oldinda bizni bilimdon va talabchan komandirlarimiz boshchiligida o'zlashtirishimiz lozim bo'lgan harbiy xizmat talablari kutmoqda. Har bir safdoshim ilkidagi vazifasini mustahkam egallashga astoydil harakat qilyapti. Mening xizmatdagi vazifam – o't o'chiruvchi. Vzvod komandiri kapitan Nozim Ismatov ilkimizdagi mas'uliyatli burchni puxta o'zlashtirishimizda har tomonlama ustozlik qilmoqda. Armiya maktabida biz nafaqat Vatanga munosib himoyachi sifatida toblanyapmiz, balki orzularimiz shakllanib, maqsadga erishish yo'lida kuch yig'yapmiz ham. Masalan, men o'zim orzu qilgan yo'nalishda xorijdagi oliygohda saboq olishni niyat qildim. O'ylaymanki, muddatli harbiy xizmatni namunali o'tab, kelajakda albatta maqsadimga erishaman.

Ha, armiya maktabi o'g'lonlarimizga Vatanga sadoqat, kuch va iroda, maqsad sari dadil qadam bag'ishlaydi. Bu haqiqatni teran his qilgan oddiy askar Ibrohim Ne'matov ham bu imkoniyatdan foydalanishiga ishonamiz.



**Jahongir ABDUMALIKOV**

## BO'LAJAK DASTURCHI

"Men axborotlarni dasturlashga qiziqaman, oliygohda tahsil olib, albatta dasturchi bo'laman!" Askarlar davrasida suhbat ketganida Jizzax viloyatining Baxmal tumanidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan oddiy askar Jahongir Abdumalikov kelajak maqsadini shunday bayon qildi. Darhaqiqat, yurt egalari bo'lmish o'g'lonlar nafaqat Vatan himoyachilari, balki mamlakat istiqboli, taraqqiyoti uchun mas'ul insonlardir. Ularning kelajak maqsadi turlicha bo'lsa-da, ayni fursatdagi intilishlari bir, ya'ni posbonlik burchini egallash, askarlik sha'nini ulug'lash.

– Yigitlik burchimni o'tashga ishtiyoq bilan keldim, – deydi Jahongir suhbat chog'ida.

– Akam katta leytenant Jamshid Abdumalikov harbiy xizmatchi. U har doim yigit kishi qaysi sohani tanlamasin, albatta armiya maktabida askar bo'lib toblanishi kerak, deydi. Burchimni o'tash davomida akamning qay darajada haq ekanligini anglab yetdim. Birinchi navbatda, irodam toblandi va ota-ona qadri, Vatan sha'ni tengsiz ekanligini yurakdan his qildim. Yoshligimdan kompyuter sohasiga, til o'rganishga qiziqqanman, shug'ullanganman. Tarixiy asarlar o'qishni yoqtiraman. Harbiy qism kutubxonasida buning uchun barcha sharoit yetarli. Safdoshlarim – oddiy askarlar Xurshid Jumabekov, Ma'ruf Shomurodov bilan oldimizga maqsad qo'yganmiz: "Harbiy xizmatni a'lo darajada o'tab, tavsiyanomaga ega bo'lib, o'zimiz orzu qilgan oliygoh talabasi bo'lamiz!" Hozirda esa barcha intilishlarimiz askarlik vazifamizni puxta o'zlashtirishga qaratilgan.

Ezgu niyat ezgu harakat ila amalga oshiriladi, deydi donishlar. E'tibor qilgan bo'lsangiz, muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan o'g'lonlarimizning barchasida ezgu maqsad mujassam. Umid qilamizki, ular hayot sinovlarida ortga chekinmay, ezgu harakat ila albatta maqsadlariga erishadi.

**Zulfiya YUNUSOVA,**  
"Vatanparvar"

# Bayroq va tug',

## ARMIYA VA CHERIK

O'zbek tili so'zga boyligi, serjiloligi, rang-barangligi, turli ma'nolarga egaligi bilan boshqa tillardan ajralib turadi.

So'z mulkingning sultoni Alisher Navoiy turkiy tilning nufuzini qator asarlari, minglab g'azallari orqali ko'rsatib berdi. Shoir "Muhokamat ul-lug'atayn" da turkiy-o'zbek tilining g'oyaviy-badiiy asarlar yaratishda katta imkoniyatga egaligini, boyligini amaliy va ilmiy jihatdan asosladi.

### Turkiy til harbiy leksikasida sinonimlar

Tilning boy va rang-barang bo'lishi undagi polisemiylar, ma'nodosh so'zlar bilan belgilanadi. Tilshunoslarning fikricha, qaysi tilda sinonim – "ma'nodosh" so'zlar ko'p bo'lsa, o'sha til eng boy til hisoblanadi. Nutqning ta'sirchan, mazmunder bo'lishida sinonimlarning o'rni beqiyos. Har bir nutq maqsadni bayon etar ekan, albatta ma'nodosh so'zlarga suyanadi. Jumladan, harbiylar nutqida ham sinonimlarni uchratamiz. Masalan:

**"Milliy armiyamizning kuch-qudrati azm-u shijoatli va har ishda yetuk salohiyatli harbiy xizmatchilarimizning, bag'rikeng va oliyanob xalqimizning birligi va hamjihatligidir".**

O'zbek tili leksik sathida sinonimlarga "bir xil ma'noli so'zlar", "bir-biriga yaqin ma'noli so'zlar", "bir-biriga yaqin yoki bir tushunchani bildiruvchi so'zlar", "ma'nosi bir-biriga yaqin, ammo uslubiy bo'yog'i, qo'llanish sathi bilan farqlanuvchi so'zlar" kabi turlicha ta'riflar beriladi. Sinonimik qatorlarni belgilashda ulardagi ma'no yaqinligi, bir tushuncha atrofida birlashishi asos sifatida qabul qilinadi. Ammo shuni ham nazarda tutish kerakki, biror leksik birlik ikkinchi bir leksik ma'noni to'liq qoplash imkoniyatiga ega emas. Ular bir tushuncha atrofida birlashishiga ko'ra umumiy ma'no ostida ma'nodoshlikni hosil qiladi. Masalan:

**Sarhad, chegara; ulug' ayyom, qutlug' bayram, ulkan bayram; o'lka, ona diyor, ona zamin, Vatan, mamlakat, yurt; hudud, zamin, yer; vatandosh, yurtidosh; mustaqillik, suverenitet; mustaqil, suveren; obro'li va nufuzli; ogoh, sergak, hushyor.**

Biroq sinonimik qatorlar turli sohalarida ishlatilishi, qo'llanish uslubiyatiga ko'ra farqlanadi. Bu tipdagi sinonimlardan qay biri harbiy atamashunoslikda asosiy bo'lib qolishi lozim, degan savol tug'iladi. Bu masaladagi munosabatimizni bir-ikkita sinonimik qatorlarni tahlil etish bilan bildiramiz.

### Armiya, qo'shin, lashkar, cherik

Armiya, qo'shin, lashkar, cherik. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da mazkur sinonim qatoridagi barcha so'zlar uchun umumiy tushuncha – "davlatning barcha Qurolli Kuchlari majmui yoki uning biror qismi" ma'nosi keltirilgan. Ammo leksikalarning semik tahlili ularning ma'nolaridagi aynanlik, umumiylik va farqlilikni aniqlashga imkon beradi:

1. Sinonimik qatoridagi leksemalar o'ziga xos uslubiy bo'yog'ni, turli semalarni ifodalaydi:

**Armiya** – bu so'z asosan Qurolli Kuchlarning barchasi ma'nosida qo'llanadi va mamlakatning tayanch qo'rg'oni, himoya to'g'oni semalarini ifodalaydi. Misol:

**"Milliy armiyamiz – bizning iftixorimiz va g'ururimiz" tamoyili**

**asosida hududlarda mudofaa sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, armiya va xalqning birligini ta'minlash maqsadida harbiy-ma'muriy sektorlar tashkil etildi.** ("Vatanparvar" gazetasi).

**Qo'shin** – bu so'z ko'pincha, armiya tarkibidagi muayyan qism ma'nosida ishlatilib, asosan jangga shay yoki jangga kirgan, turli qurol-yarog'lar bilan ta'minlangan katta harbiy guruh ma'nosini ifodalaydi. So'zda urush belgilari yaqqol sezilib turadi. Misol:

**Piyoda qo'shinlarning oddiy askari Kimsan Husanov Kaluga ostonalarida bo'lgan jangda bedarak yo'qoldi.** (O. Hoshimov "Ikki eshik orasi").

**Lashkar, cherik** – eskirgan so'z, asosan, tarixiy asarlarda uchraydi. Bu leksemalar ko'pincha piyodalar, o'q-yoyli kamonchilar, otlar, fillar qurshovidagi son jihatidan juda katta jangchilar to'dasi ma'nosini anglatadi. Misol:

**Bobur, shartga muvofiq. Axsida. Tanbalning yirik lashkar bilan kelishi kutilmoqda.** (Bobur. "Boburnoma").

**"... Olibmen taxti farmoning'a oson, Cherik chekmay Xitodin to' Xuroson".** (A. Navoiy).

2. Sinonimik qatoridagi barcha so'zlar turli tillarga mansubligi bilan farqlanadi: **armiya** – lotincha "armare – qurollantirmoq";

**qo'shin** – o'zbekcha "askarlar, armiya"; **lashkar** – forsiy "qo'shin, armiya"; **cherik** – mo'g'ulcha "sereg – askar, jangchi".

3. Qo'llanish uslubiyatiga ko'ra ular bir-biridan farq qiladi:

**Armiya** – terminologiyada harbiy termin sifatida ishlatiladi. 1) davlat Qurolli Kuchlarining majmui; 2) Qurolli Kuchlarning bir qismi, birinchi navbatda quruqlikdagi qo'shinlar; shu ma'noda "armiya" atamasi harbiy-dengiz flotidan farq qilish uchun ishlatiladi; 3) urush davridagi jangovar harakatlarda ishtirok etayotgan qo'shinlar, operativ birlashmalar; 4) turli qo'shin turlarining bir necha birlashmalari va ayrim qismlaridan tashkil topgan operativ qo'shilmalari. **Umumqo'shin armiya, tank armiyasi, havo armiyasi** kabi. Bundan tashqari o'zbek tili tizimida armiya umumiste'molda ishlatiladigan, faol so'z: milliy armiyamiz, armiyaga bormoq, armiyada xizmat qilmoq kabi qo'llanadi.

**Qo'shin** – bugungi kunda umumiste'molda sust so'z bo'lib, faqat soha vakillari nutqida harbiy atama sifatida ishlatiladi. "Harbiy atamalarning qisqacha izohli lug'ati" tarkibida harbiy qismlar, faqat o'ziga xos qurol-yarog', jangovar texnika va ulami jangovar jihatdan qo'llash usullariga ega – Qurolli Kuchlar turining tarkibiy qismi ma'nosida keladi. Qo'shin turi, qo'shinlar artilleriyasi, qo'shinlar guruhi kabi.

**Lashkar, cherik** so'zlari asosan badiiy uslubga xos bo'lib, tarixiy asarlarda uchraydi. **Samarqanddan Boysunqur mirzo ham katta, yaxshi qurollangan lashkar bilan chiqib, Kanboy mavzesida saf tortib urushdilar.** (Bobur. "Boburnoma").

Ma'nodoshlik (*sinonimiya*) hodisasi kontekstual xarakterga ega bo'lib, ulardan foydalanish semantik maydonni boyitadi. Ularning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Sinonimlardan foydalanishda denotatning boshqa bir leksema bilan sintaktik munosabati sinonimik qatoridagi boshqa leksemalar bilan birikishidagi holati ularning paradigmatic munosabatiga

o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, **Yangi O'zbekiston armiyasi** birikmasini **Yangi O'zbekiston qo'shini** tarzida qo'llash yoki **armiya xizmatiga jo'namoq** birikmasini qo'shin xizmatiga jo'namoq birikmasi bilan almashtirish mumkin emas. **Lashkar va cherik** leksemalarini esa bugungi kun nutqida qo'llab bo'lmaydi. Tarixiy asarlar tarkibida kelgan holatini esa armiya va qo'shin leksemasida ifodalash mumkin emas. Masalan, **Bobur bir necha marotaba Samarqand ustiga qo'shin tortdi.** Bu o'rinda armiya so'zini qo'llab bo'lmaydi.

### Bayroq, yalov, alam, tug', baydoq

Ushbu sinonimik qator "dastaga o'rnatilgan, davlat, tashkilot, uyushma, harbiy qism va shu kabilarga qarashlilikni ramziy ifodalovchi muayyan o'lchamdagi mato" ma'nosi ostida birlashgan. Ammo ushbu so'zlar semantikasini tahlil qilish jarayonida ular orasidagi tafvutlar, farqlar yaqqol namoyon bo'ladi. Sinonimik qatorida dominant so'z "bayroq" bo'lib, u uslubiy betaraf so'z hisoblanadi.

**Bayroq** so'ziga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha ta'rif beriladi: **"Yog'och yoki metall dastaga, sim yoki chilvirga mahkamlangan, bir yoki bir necha rangli, davlat, tashkilot, uyushma, harbiy qism va shu kabilarga qarashlilikni ifodalovchi gerb, emblema va boshqa ramziy belgilar, bezaklar tasviri tushirilgan muayyan o'lchamdagi mato"**. Demak, bayroq har bir davlatning ramzi bo'lib, unda shu yurtning milliy, ma'naviy qadriyati o'z askini topadi. Bugungi kunda faol bu so'z millatning ramziningina emas, uning mustaqilligi, g'ururi va nufuzini ham ifodalovchi leksema sifatida baholanadi.

**Yalov** – tug', bayroq. Bu ot qadimgi turkiy tildagi "zichla, birkit" ma'nosini anglatgan yala-fe'lidan -v qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan. Bu ot dastlab nimaningdir belgisi sifatida tayoq uchiga bog'langan narsa ma'nosini anglatgan, tug', bayroq ma'nosi shu ma'nodan kelib chiqqan. Yalov jang-u jadallarda g'oliblik belgisi sifatida ko'tarilgan. Asarlarda qo'llanishini o'rganish jarayonida ayon bo'ldiki, yalov leksemasi faqat ma'lum bir qo'shinning, lashkarning ramziy belgisi sifatida ishlatilgan. Jangda g'olib muvaffaqiyat belgisi sifatida yalovini ko'targan.

**Alam** – "O'zbek tilining izohli lug'ati"da arabcha – 1) bayroq, tug'; 2) aziz-avliyolar dafn etilgan mozorga sig'inuvchilar tomonidan shu mozor daraxtlariga bog'langan latta izohi keltirilgan. Bu so'z kitobiy nutqqa xos leksema bo'lib, eskirgan so'z sifatida bugungi kun nutqida umuman ishlatilmaydi.

**Er Hubbiga borib, astoydil sig'inib, shayxlarga to'n kiygizdi, kekxa chinorlarga alam bog'ladi, bo'lmadi.** (S. Ahmad. "Hukm")

**Tug'** – "O'zbek tilining izohli lug'ati"da: 1) musulmonlarning yog'och dastaga o'rnatilgan qo'tos, ho'kiz yoki otning dumidan va yarim oy

tasviridan iborat bayroqsimon belgisi; 2) bayroq, alam kabi izoh beriladi. **"U ko'chaning naryog'idagi bir avliyoning sog'onasi ustiga o'rnatilgan tug'ni ko'rди".** "Bu inoyatlardan keyin Muhammad Ali jang-jangga maxsus qora baxmal bosh kiyim, qalmoqi sovut berib, tug' ham sovg'a qildim". (Bobur. "Boburnoma")

**Baydoq** so'zi, asosan, folklor, xalq og'zasi ijodida uchraydi. Adabiy tilda bu so'z deyarli qo'llanmaydi. **Qistab yetdi tug'-baydoqning ostiga, Yusufman Ahmadning otin Ashirbek...** ("Yusuf va Ahmad").

E'tibor qiladigan bo'lsak, bu sinonimik qatoridagi so'zlarning biri o'rinda ikkinchisini qo'llab bo'lmaydi. Chunki har bir so'zning bir-birini zidlashtiradigan semalari mavjud. Ayrim sintaktik qoliplar buni qabul qilishi mumkin, lekin bu degani har doim ham sinonim bo'ladi degani emas.

Bugungi kunda harbiy soha terminologiyasiga bo'lgan qiziqishning ortib borishi soha tili bir qancha tadqiqotchilar uchun tadqiq manbai ekanligidan dalolat beradi. Harbiylar nutqida sinonimlardan foydalanish, ma'nodosh so'zlar qatorini tuzish o'ziga xos va mos bo'lishi shart. Chunki bu nutq shunchaki oddiy nutq emas. U butun xalqqa, millatga qaratilgan nutq hisoblanadi.

Shunday ekan, milliy armiyamiz tarkibida xizmat qilayotgan yigitlar har bir so'zida, shaxsiy tarkib yoki el oldidagi nutqida sinonimlarning ifodalanishiga e'tibor berishi, ularning semalaridagi farqni ilg'ay olishi, har bir so'zning o'z o'rinda qo'llanishini e'tiborga olishi zarur. Zero tarixiy asarlarda ulug' jangchilarga berilgan "so'zi o'tkir, qilichi keskir" degan ta'rif bejiz emas.

Firuz MURODOVA,  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi





## Kuyinchak gazetxon

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi tuzilgan bo'lib, bu idora zimmasiga ta'limning barcha bosqichlarida o'qitish uslublarini tatbiq etish, samarali dastur va darsliklar ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan.

Ushbu sa'y-harakatlar doirasida hukumat O'zbekiston fuqarolari va umuman mamlakat raqobatbardoshligini oshirishi kutilayotgan 10 ta tilni tanlab olgani barchamizga ma'lum. Ana o'sha ro'yxatning boshida ingliz tili, undan keyin rus, nemis, fransuz, xitoy, koreys, yapon, turk, arab va fors tillari turadi.

O'zbek tili O'zbekistonning rasmiy davlat tili bo'lsa, rus tili, ayniqsa poytaxt va yirik shaharlarda qo'llanish ko'lami kengligi bilan ajralib turadi. O'zbek yoshlari orasida ingliz tili tobora ommalashib borayotgani ham rost. Bunga sabab nima deb o'ylaysiz?

O'zbekistonda faqat ingliz tilida ta'lim beradigan davlat maktablari bo'lmas-da, ingliz tili kurslari juda ommabop, ammo ular arzon emas. Masalan, o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, Toshkent shahridagi o'quv markazi uch oylik kurs uchun 180 dan 200 dollargacha (1,9 million so'mdan 2,2 million so'mgacha) pul olishi mumkin ekan. Bu kam summa emas, albatta. Lekin bu tilni o'rganishga qiziqish katta.

Mavzu yuzasidan ko'pgina suhbatdoshlarimizning fikrlari bilan qiziqdik. **Jurnalist Maqsuda Abduqayumova:** "Men bugungi kun yoshlarida xorijiy tillarni o'rganishga qiziqish ortayotganini ijobiy baholayman. Ona tilimizga qo'shimcha boshqa chet tillarini o'rganish hech qachon zarar qilmaydi, aksincha yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Tarixga nazar solsak, buyuk qomusiy olim, mutafakkirlarimiz poliglot bo'lishgan. Bugungi kunda yangi, zamonaviy ilmlarni tezkor o'rganish uchun til bilishning ahamiyati yanada oshgan.

Ba'zan ziyolilarni, millat taqdiri bilan yashayotgan odamlarni yoshlar orasida xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talabning tobora oshib borayotgani xavotirlantiradi. Aksariyat chet tillarni o'rganayotgan yoshlar o'z kelajagini, ertangi kunini O'zbekistonda ko'radimi-yo'qmi degan savol qiynaydi ularni. Chunki Vatan kelajagi yoshlar. Kimdir chet tillarni xorijda o'qish, ishlash, tajriba orttirish uchun o'rgansa, butunlay boshqa davlatga ketish va yashab qolish maqsadida o'rganayotganlari ham bor. Bu biroq o'ylantiradigan masala. Albatta, men ham chet tillarni o'rganib, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini o'zlashtirayotgan yoshlarning kelajakda, birinchi navbatda, Vatanimizga nafi tegishini, xuddi ajdodlarimiz kabi o'z yurtida faoliyat olib borib, dunyo tamadduniga hissa qo'shishlarini istardim.

Ammo hech bir xorijiy tilni o'rganish ona tilimizni unutish hisobiga bo'lishi kerak emas. Bunday deyishimga sabab, ayrim otalarning farzandi o'zbek tilini o'rganishidan ko'ra, ingliz, rus yoki qaysidir xorijiy tilni o'rganishini ko'proq istashadi. Shu maqsadda bolalarini chet tillarga ixtisoslashgan maktablarda o'qitishga yoki qo'shimcha til kurslariga yuborishga harakat qiladi. Natijada, o'z ona tilini haminqadar biladigan avlod yetishib kelyapti. Buning sababi oddiy, ularning fikricha, farzandi xorijiy tillarni o'rganmasa, kelajakda yuqori daromadli joylardan ish topa olmasligi mumkin, o'zbek tilini bilmaslik bu borada katta yo'qotish emas, deb hisoblashadi.

Chunki ish beruvchilar, xususan davlat idoralari ham katta maoshli lavozimlarga xorij tillarini biladigan kadrlarni olishadi. Biror joyga ish so'rab borsangiz, "Davlat tilini qanchalik yaxshi bilasiz?" deb so'rashmaydi, "Qaysi chet tilni bilasiz?" deb so'rashadi. Ko'ryapsizmi, hamma narsa istaymizmi-yo'qmi, ehtiyojdan kelib chiqadi.

Bu jarayonda o'zbek tilining taqdiri o'ylantiradi. Ona tilimizning ertangi kunini faqat oiladagi o'zbek tiliga bo'lgan munosabat, qadriyatlariga sadoqat, mehrga bog'lab qo'yolmaymiz. Agar biror xorijlik o'zbek tilida gapirsa, uni shunchaki o'zbek tilida gapirgani uchun ich-ichimizdan yaxshi ko'rib ketamiz. Bu tilimizga bo'lgan mehrimizdan. Lekin

milliy o'zlikka tahdid bo'lmasligi kerak



davlat tilining rivoji uchun bu mehr kamlik qiladi. Tilni rivojlantirishga hukumat darajasida doimiy e'tibor bo'lishi kerak. O'zbekistonda yashayotgan har bir inson o'zbek tilini bilishdan manfaatdor bo'lishi, ularda davlat tilini o'rganishga yetarli darajada ehtiyoj yaratilishi kerak.

Ona tili shunchaki gaplashish vositasi emas, u millatning qalbi - odamlarni xalq sifatida birlashtiruvchi kuch. Unutmashimiz kerakki, ona tilini yo'qotgan millat hamma narsasini yo'qotadi. Milliy ruhiyati, qadriyatlarini, o'zligi, madaniyati, o'tmishi, kelajagidan mosuvo bo'ladi. Bu mavzuda ko'p gapirish mumkin. Muxtasar aytсам, hukumat davlat tilini rivojlanishi uchun shunaqa sharoit, imkoniyat, muhit yaratishi kerakki, bugungi avlod til o'rganishni o'zbek tilini o'rganishdan boshlasin".

**Jurnalist Karim Zaripov:**

"Ochiq aytish kerak, o'zbek tiliga munosabat nafaqat chet tilni o'rganayotgan yoshlarda, balki kattalarda ham ko'ngildagidek emas. Afsuski, og'zaki ya'ni ko'cha tilida xorijiy so'zlarni qo'shib ishlatish allaqachon oddiy holga aylanib ulgurdi.

Kasbim tufayli davlat mulozimlari qatnashadigan tadbirlarda ko'p ishtirok etaman. Millati o'zbek, O'zbekistonda tug'ilib o'sgan, shu yurtda katta lavozimda ishlayotgan ba'zi amaldorlarning o'zbekcha gapirishni istamasligi, gapirsa-da ikki gapning birida ruscha so'zlardan qo'shib ishlatishi juda xunuk ko'rinadi. Shunday ekan, yoshlardan o'zbek tiliga hurmatni talab qilish biroz mantiqsizlik. Avval kattalarimiz o'rnak bo'lishi kerak".

Chet tilni o'rganmaydigan yoshlarni topish ancha mushkul bo'lib qoldi. Chet tili qaysidir ma'noda najot tili sifatida qaraladigan darjaga yetdi. Birgina bu yil OTMlarda xorijiy til va ingliz filologiyasi yo'nalishida o'tish ballarini ko'rib chiqdim. Juda yuqori, demak, yoshlarimiz orasida ingliz tilini o'zlashtirish darajasi ham shu qadar yuqorilagan.

O'zaro suhbatlashib o'tiradigan yana bir suhbatdoshimning aytishicha, u "IELTS sertifikatini olgan yoshlardan faxrlanadi. "Tilni o'rgatishni takomillashtirish uchun bizga yangi xorijiy usullar, darsliklar va yangi ta'lim texnologiyalari kerak. AQSh va Britaniya o'qituvchilari yordamiga muhtojmiz", dedi yana bir tilshunos.

**Talaba Gavharshod Abduraupova:**

"Jahon tillari universitetida o'qiganim sababli atrofdagi tengdoshlarim ham men kabi til o'rganishga juda qiziqishadi. Dastavval ingliz tilini, hozirda Xitoy tilini o'rganib kelmoqdaman. Til bilish yoshlar orasida "trend"ga aylangan, desam adashmagan bo'laman.

Ko'pchilik chet tilni o'rganib, o'zbek tilini unutib qo'ygandek tuyuladi ba'zi paytda. Bir o'rtog'im o'zi o'zbek, lekin Filologiya va tillarni o'qitish yapon tilida (yevro guruhda) o'qiydi. Men kabi avval ingliz tilini o'rganib o'qishga kirgan. Uning nutqiga e'tibor bersam, har gapiga ruscha, yaponcha, inglizcha so'zlarni aralashtirib, chiroyli tilimizni buzib gapiradi. Nega unday, desam, "Miyamda shuncha til bor, o'zbekcha so'zlar kelmay qoladi deydi".

Yuqoridagi holat faqatgina o'rtog'imda emas, boshqa tengdoshlarimda ham kuzatiladi. Menimcha, bunday yoshlarning til o'rganishidan oldin ham o'zbek tili bo'yicha so'z boyligi kam bo'lgan. Badiiy asarlar o'qimagan. Kitob o'qigan inson ona tilida to'g'ri va ravon gapiradi.

Hamma tanigan yurist, jurnalist, aktyor Otobek Mahkamov ham 8 ta tilda erkin gaplasha oladi. Ijtimoiy tarmoqlarda muntazam kuzatib boraman, reportajlari o'zbek tilida bo'ladi. Eng qizig'i, boshqa til so'zlarini aralashtirmasdan gapiradi.

Fikrimcha, til o'rganayotgan har bir kishi avvalo, o'z ona tilida so'z boyligini ko'paytirishi, kitoblarni ko'proq o'qishi kerak, deb hisoblayman".

O'ylashimcha, ingliz tilini o'rganishga tirishayotgan yoshlarimizning o'zbek tiliga bo'lgan munosabati o'zgaray qolmaydi. Axir biz o'zbekimiz, millat tilini saqlagan holda, mamlakat ichida akademik almashinuv va ko'p tillilikni rag'batlantirish zarur!

Gapning indallosini aytadigan bo'lsam, chet tillarning ommalashuvi o'zbek tili qadriyatlariga zid kelmasligi lozim. Yana bir gap, turli tillarni o'rganish va qo'llash milliy o'zlikka tahdid sifatida emas, balki ma'lum ma'noda raqobat ustunligi sifatida tushunilishi va qabul qilinishi kerakligini yoshlar ongiga singdirish kerak.

Muqaddas SADDINOVA

# “OMMAVIY MADANIYAT”NING

## ZAMONAVIY KO'RINISHLARI

Bugungi kunda dunyo miqyosida xavfsizlik va barqarorlikka raxna solish orqali yoshlarni o'ziga rom etayotgan “ommaviy madaniyat” g'oyaviy-mafkuraviy tahdid sifatida namoyon bo'lmoqda. Hozirgi globallashtirish sharoitida mafkuraviy vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan “ommaviy madaniyat” tahdidi tobora keskinlashib borayotganini anglash qiyin emas.

“Ommaviy madaniyat” madaniy-mafkuraviy tazyiqning eng xavfli qurollaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur holat dunyo miqyosida ma'naviyat, madaniyat va mafkuralar o'rtasida zimdan kurash ketishiga zamin yaratmoqda. Mafkuraviy kurash orqali omma ongiga ta'sir ko'rsatish ma'naviy va axloqiy tubanlikni o'zida namoyon etuvchi “ommaviy madaniyat” misolida tobora kuchaymoqda.

Olimlarning tadqiqotlarida antik dunyoda tashkil etilgan olimpiada o'yinlari hamda gladiatorlar jangi “ommaviy madaniyat”ning dastlabki ko'rinishlari sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, xorijlik tadqiqotchi D. Uayt fikriga ko'ra, qadimgi Rim amfiteatrlarida namoyish etilgan gladiatorlar jangi ommaviy madaniyatning elementlaridir. Mazkur o'yinlar o'sha davrda fojiali ko'rinishga ega bo'lib, asosan ko'ngilochar tomosha sifatida emas, balki moddiy manfaatdorlik vositasi o'laroq tashkil etilgan. Ushbu ommaviy tadbirlar keyinchalik o'limga mahkum etilganlar o'rtasida o'tkazilgan, unda kuchsizlar halok bo'lar, kuchlilar tirik qolib,

tomoshabinlarni hayratga solar edi. Mazkur shafqatsiz tomoshani rimliklar ilk bor miloddan avvalgi 264-yilda Rimdagi buqabozorda Brutning o'g'illari tomonidan otasini xotirlab uyushtirilgan, uch juft gladiator jang qilgan izdihomda ko'rishgan. Tomosha rimliklarga juda g'aroyib va diqqatga sazovor bo'lib ko'ringanidan Rim solnomasiga kiritilgan. Shu tariqa gladiatorlar jangi mil. av. 105-yilga kelib, Rimda ommaviy tomoshalar qatoriga kiritilgan. Bu yondashuv tarafdorlari ommaviy madaniyatni qadimgi dunyoda paydo bo'lgan degan fikrlarida asosan ommaviy madaniyat aholining ko'p sonli ommasidan iborat tuban qatlamlariga yo'naltirilganiga e'tibor qaratadi.

AQShlik geosiyosatchi Zbignev Bjezinskiy o'zining mashhur “Buyuk shaxmat taxtasi” asarida Amerikaning dunyodagi gemonligining zamirida strategik maqsadlar muhim o'rin tutishini qayd etib, unda harbiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy yutuqlar bilan bir qatorda madaniyatni ham alohida ajratib ko'rsatadi. Bu haqda Z. Bjezinskiy: “O'z estetik qadriyatlariga kim nima desa desin, ommaviy madaniyat, ayniqsa butun jahondagi yoshlarni ohanrabodek o'ziga tortadi. Uning jozibadorligi o'zi targ'ib etadigan hayotni sevishdan kelib chiqadi, biroq uning jahon bo'yicha jozibadorligi shak-shubhasizdir”, deya ta'kidlaydi. Zero ommaviy madaniyatning global miqyosda targ'ib etilishi muayyan mintaq va hududda yashovchi aholining axloqiy qadriyatlariga g'oyaviy-mafkuraviy ta'sir ko'rsatib, “o'zgacha” madaniyatni singdirish orqali milliy madaniyatga raxna solmoqda.

Bugungi kunda ko'plab mamlakatlar ekranlarida axloqsizlik, buzg'unchilik, zo'rvonlikka asoslangan film va seriallar namoyish etilayotgani insoniyatni teran fikrlashga undaydi. “Ommaviy madaniyat”ning tahdidi haqida AQShlik siyosatchi P. Byukenen “1950-yillardan boshlangan “ommaviy madaniyat” harakati 1990-yillarga kelib, millatimizni naslsizlik balosiga duchor qildi”, deya ta'kidlagan edi. G'arb dunyosida “ommaviy madaniyat” oqibatida bir jinsli nikohning ommaviy avj olishi, ayollarning o'z qomatini saqlash maqsadida farzand ko'rishdan voz kechishi, aksariyat yangi qurilayotgan yosh oilalarda er-xotinning “o'z-o'zi” uchun yashashga intilishi va farzandsiz yashashni maqsad

qilayotgan oilalarning ko'payishi ushbu illat keltirib chiqarayotgan asosiy omildir.

“Ommaviy madaniyat” tufayli dunyo miqyosida buzg'unchi g'oyalar, axloqsizlik, g'ayriinsoniy odatlarni targ'ib etish ommalashmoqda. Shu o'rinda “ommaviy madaniyat” harakati oqibatida axloqsizlikni madaniyat deb, asl ma'naviy qadriyatlarga bepisandlik bilan qarash holatlari namoyon bo'lmoqda. Natijada mazkur illat mamlakat taraqqiyoti, inson hayoti, oila birdamligi va millat kelajagi bo'lgan yoshlar tarbiyasiga tahdid solayotgani tashvishlidir.

“Ommaviy madaniyat”ning xavfli tomoni shundan iboratki, u millatga mutlaq yot bo'lgan tubanlik illatlarini o'zida namoyon etadi. “Ommaviy madaniyat”ning zamirida millat madaniyati va mentalitetiga raxna solish orqali begona va yot g'oyalarni targ'ib etish tobora kuchaymoqda. Natijada “ommaviy madaniyat” dunyo miqyosida xalq va millatning o'ziga xosligiga putur yetkazish orqali insonni barcha jabhalarda o'ziga tobe qilmoqda.

O'tmishdan ma'lumki, xalqaro munosabatlarda mafkuraviy ta'sir ko'rsatish jarayonida ma'naviyat va madaniyatni targ'ib etish muhim ahamiyat kasb etgan. Tarixda davlatlararo amalga oshirilgan savdo-sotiq munosabatlarida o'zga davlatlardan olib kelingan tovarlar timsolida shu mamlakatda yashovchi xalqlarning madaniyati va urf-odatlarini kirib kelgan. Tuya karvoni bo'ladi yoxud kema yukxonasida bo'ladi, qanday shaklda bo'lmasin, olib kelinayotgan tovar yonida hamisha muhim siyosiy “mahsulot” – g'oya bo'lgan va boshqa mollar qatori eksport qilingan. Aynan ana shu taktika “universal madaniyat” eksportida bugun ham faol qo'llanmoqda. Natijada ayrim kuchlar “ommaviy madaniyat”dan o'z manfaati yo'lida foydalanib, moddiy foyda olish asosiy maqsad ekani oydinlashmoqda. Shu o'rinda “ommaviy madaniyat” zamirida avvalo, tijorat, moddiy manfaatdorlik borligini anglash lozim. Mustamlakachilar o'z qadriyatlarini va mafkuralarini koloniyalarida o'rnatishga alohida e'tibor qaratgan.

O'tmishda yirik davlatlar tomonidan muayyan hudud va mintaqada o'z davlatining qadriyatlarini, an'analarini hamda g'oyalar, mafkuralarini targ'ib etishda savdogarlar, missionerlar faoliyati muhim o'rin tutgan. Shu tariqa o'zga madaniyat, ma'naviyatni targ'ib etish orqali inson qalbi va ongini zabt etishga alohida e'tibor qaratilgan. Zero muayyan millat ongiga o'zga madaniyat, qadriyat, urf-odatlarini singdirish orqali u xalqni osongina zabt etish mumkin. Bunga tarix guvoh.

Xususan, “ommaviy madaniyat” namoyandalari g'oyaviy-mafkuraviy qurolning muhim ko'rinishi sifatida targ'ibot va yolg'on axborotlardan



◀ o'z maqsadi yo'lida foydalanmoqda. Mazkur harakat tarafdorlari axborot oqimidan g'arazli maqsadda foydalanayotgani tashvishlidir. Zero mana shunday murakkab sharoitda dunyo miqyosida tinchlik, barqarorlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash har bir davlat oldida turgan dolzarb vazifadir. Xususan, dunyoning turli mintaq va davlatlarida kechayotgan ayanchli voqealar tahlili ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va elektron nashrlar ko'p hollarda ayrim buzg'unchi kuchlar qo'lida turli soxta, zararli g'oya va mafkuralarni targ'ib etishning qulay va tezkor vositasiga aylanib qolayotganini ko'rsatayotir. Bu kabi tahdidlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar yemirilishiga, zo'rvonlik, inson taqdiri, jamiyat hayotiga bepisandlik, loqaydlik, mas'uliyatsizlik, andishasizlik, behayollik kabi illatlar ildiz otishiga zamin yaratmoqda.

Dunyo miqyosida yuz berayotgan eng xavfli illat sifatida namoyon bo'layotgan "ommaviy madaniyat" xurujlari o'ziga bir davlat fuqarolarining qalbi va ongini zabt etish, mafkurasidan voz kechtirish orqali "o'zgacha" mafkuralarni singdirishda namoyon bo'lmoqda. "Ommaviy madaniyat" oqibatida madaniyatsizlik, e'tiqodsizlik kabi qator "ta'limotlar" oshkora, ba'zan esa yashirin tarzda targ'ib etilmoqda. Natijada milliy ruh, millatning o'ziga xosligi va asriy qadriyatlarini zimdan yemirishga zamin yaratilmoqda. Yovuzlik, jaholat insonni va jamiyatni tubanlikka boshlovchi, odamlarni g'arazli niyat, qabih maqsadlarga undovchi "ommaviy madaniyat" doimo insoniyat uchun xatarli hisoblangan.

"Ommaviy madaniyat" tahdidlariga qarshi kurashning ta'sirchan samaradorligini oshirish bugungi kunda nihoyatda dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Zero, XXI asrga kelib, mafkura poligonlarida o'zida yovuz va buzg'unchi g'oyalarni namoyon etuvchi "ommaviy madaniyat" tobora kuchaymoqda. Ayniqsa, G'arb olamida keng taraqqalayotgan erkinlik niqobidagi "ommaviy madaniyat" zamirida har qanday xalq va millat ma'naviyatini izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar yotibdi.

Global miqyosda madaniyat ko'rinishida targ'ib qilinayotgan "ommaviy madaniyat" yoshlarimiz ma'naviyati, dunyoqarashi va axloqiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda tobora kengayib, o'z shaklini o'zgartirib borayotgan "ommaviy madaniyat"ni aksariyat g'o'r va tajribasiz yoshlar "yevropacha madaniyat" va "erkinlik" sifatida qabul qilayotgani barchamizdan bu borada jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda. Chunki madaniyat ko'rinishidagi "ommaviy madaniyat" ta'sirida yoshlar qalbi va ongi, ruhiyatini izdan chiqarishga bo'lgan harakatlar namoyon bo'layotgani juda tashvishlidir. Qolaversa, ushbu mafkuraviy-g'oyaviy tahdid har qanday xalq va millatning o'ziga xosligini rad etuvchi g'oyani targ'ib etmoqda. Shu tariqa buzg'unchi g'oyalarni namoyon etish orqali mamlakat taraqqiyotiga jiddiy tahdid solmoqda.

Globalashuv sharoitida "ommaviy madaniyat" quyidagi holatlarda namoyon bo'lmoqda: axloqiy buzulqik, zo'rvonlik, egotsentrizm, ayollarning ichkilik va kashandalikka ruju qo'yishi, pornografik mahsulotlarni targ'ib etish, inson tanasiga turli tatuirovkalar chizish, bir jinsdagi kishilar bilan turmush qurish kabi illatlar kuchaymoqda.

"Ommaviy madaniyat"ning nisbatan keng tarqalgan ko'rinishlaridan biri bo'lgan kosmopolitizm (*yunoncha "kosmopolites"* - "dunyo fuqarosi") g'oyasida Vatan, millat degan tushunchalarni rad etish, "Inson dunyo fuqarosi" shiori asosida vatanparvarlik, davlatlar mustaqilligi, milliy madaniyat va ma'naviyat kabi qadriyatlarni inkor etib, faqat dunyo fuqaroligini targ'ib qiluvchi dunyoqarash g'oyasini singdirishga alohida e'tibor qaratiladi.

"Ommaviy madaniyat"ning jamiyat uchun ancha xavfli va xatarli shakllaridan yana biri "nigilizm"dir. "Nigilizm" lotincha "nihil" - "hech nima", o'zining yoki yurtining kuch-qudratiga ishonmaslik, ularga past baho berish, ertangi kunga ishonchsizlik, umidsizlik, ya'ni muayyan millat vakillarining o'z millati imkoniyatlarini kamsitib, pasaytirib baholashi, o'z yurtining qadriga yetmaslik, mamlakatda ro'y berayotgan o'zgarishlar miqyosini anglay



olmaslik holatlariga olib keladi. Nigilizm tarixiy hamda madaniy qadriyatlarni inkor etish, umume'tirof etilgan qadriyatlarga nisbatan salbiy va o'ta tanqidiy munosabatda bo'lish orqali axloqiy tubanlikni namoyon etib, o'zida bo'zg'unchilik g'oyalarni aks ettiradi. Ayniqsa, milliy nigilizm illati tufayli insonning mafkuraviy immuniteti zaiflashishi oqibatida uning ongida o'zgacha dunyoqarash shakllanadi. Natijada nigilizm ta'siriga tushgan kishilar Vatan manfaatini himoya qila olmaydigan, befarq, loqayd odamlar sifatida gavdalanayotgani tashvishli holdir.

Bugungi kunda tatuirovka "ommaviy madaniyat" mahsuli sifatida keng miqyosda yoyilyapti. Tatuirovka inson tanasiga igna yordamida turli shakllarni chizdirish orqali jamiyat hayotida g'ayriodatiy xulq-atvor shakllanishiga zamin yaratadi. Tatuirovkaga qiziqish sog'liqqa jiddiy ta'sir ko'rsatib, tanada turli yuqumli kasalliklarni keltirib chiqarishga sabab bo'lishini anglash lozim.

O'tmishda inson tanasiga tatuirovkalar chizdirish asosan, ashaddiy jinoyatchilar uchun jazo vositasi sifatida qo'llanilgan bo'lib, odatda, u o'sha mahbusning qamoqdagi "darajasini" belgilab bergan.

"Ommaviy madaniyat" tarafdorlarining asl maqsadi milliy taraqqiyot modeliga ishonchsizlik uyg'otish orqali rivojlanayotgan davlatning moddiy va ma'naviy boyliklarini egallashdan iborat. Aynan mazkur omil gegemon davlatlarning dunyoda o'z hukmronligini o'rnatish, axloqiy buzulqikni ifoda etishda "ommaviy madaniyat"ni reklama, targ'ibot va tashviqot qilish orqali madaniyatlararo ta'sir ko'rsatishda muhim o'rin tutmoqda. Ayniqsa, bu gegemon davlatning "ommaviy madaniyat"ni rivojlanayotgan mamlakatga "eksport" qilishida namoyon bo'lmoqda. Xususan, qudratli davlatlar mafkuraviy ta'sir o'tkazish, milliy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda o'ziga davlat madaniyatga raxna solishda ta'sirchan qurol sifatida "ommaviy madaniyat" niqobidan foydalanmoqda. Jamiyatda vujudga keladigan ma'naviy tubanlik va g'oyaviy bo'shliq tufayli yoshlar qalbi va ongini zabt etish orqali ularni to'g'ri yo'ldan chalg'itishga undayotgan "ommaviy madaniyat" tahdididan o'z vaqtida ogoh bo'lish muhim.

"Ommaviy madaniyat" nomi ostidagi faoliyat axloqiy buzulqik va zo'rvonlik g'oyalarni tarqatish, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning ko'p ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlarini qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlardir. U odamlarning didini yuksaltirishga, milliy va jahon san'atining mumtoz asarlarini tushunishga emas, balki ulardan uzoqlashtirishga xizmat qiladi.

"Ommaviy madaniyat" avvalo, madaniyatsizlik

ifodasi bo'lib, insonga qarshi qaratilgan zo'rvonliklar, fahsh, qotillik, xudbinlik kabi milliy ma'naviyatimizga mutlaqo yot bo'lgan illatlarni targ'ib etmoqda. Zero ushbu "madaniyat" tarafdorlari tomonidan yoshlar o'rtasida "Sen erkinsan, ko'ngling tusagan ishni qil, yoshligingda ayshingni sur, sen ozod va hursan, hatto ota-onang ham senga xo'jayin emas!" degan soxta g'oyalarning targ'ib etilishi oilaviy munosabatlardan ajratish orqali yigit-qizlarni asl ma'naviy va madaniy qadriyatlardan chalg'itishga olib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, "ommaviy madaniyat" targ'ibotchilari insonda vatanparvarlik, yurtga muhabbat tuyg'ularini so'ndirib, xalqning azaliy ma'naviyati va e'tiqodidan mahrum etish orqali millatning o'zligi hamda tarixidan judo qilishga intilayotganini teran anglash lozim. "Ommaviy madaniyat" har qanday xalq va millatlar o'rtasida madaniyat borasida o'zaro ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. Aynan shu omillar azaliy qadriyatlar tizimini vayron etish orqali shaxsni tubanlashuv girdobiga yetaklaydi.

**Mansur MUSAYEV,**  
Respublika Ma'naviyat  
va ma'rifat markazi  
huzuridagi  
Ijtimoiy-ma'naviy  
tadqiqotlar instituti  
bo'lim boshlig'i, siyosiy  
fanlar doktori



# XABARCHI QUSHLAR

## qadimdan XIX asrgacha



uchirib yuborishga qaror qildilar. Kabutar ham qanot qoqib, osmonga parvoz qildi. U Rum ahliga, Rumgina emas, Yer yuzining butun tog'-u dashtidagi odamlarga xushxabar olib keldi”.

### NURIDDIN MAHMUD KABUTARLARI

Mashhur turk qo'mondonlaridan biri, Salohiddin Ayyubiyning ustози, salibchilarga qarshi mardona kurashgan Nuriddin Mahmud Zangiy Oqsungur haqida yozilgan tarixlarda ham kabutarlar to'g'risida muhim ma'lumotlar bor. **Nuriddin Mahmud dushmanning harakatlari, qo'shinning ahvoli va boshqa o'ta muhim ma'lumotlarni olish uchun kabutarlardan foylanadi. Uning buyrug'i bilan eng kuchli va sog'lom qushlarning har bir jufti 1 000 dinordan sotib olinadi.** Ularni xabar-xat tashishga o'rgatadi. Qisqa muddatlarda butun mamlakat bo'ylab kaptar minoralari qurilib, o'lkaning barcha viloyatlarida xabarchi qushlarning parvozi boshlanadi. Salibchilarning yurishlari haqida o'z vaqtida olingan ma'lumotlar tufayli Nuriddin g'alaba qozona boshlaydi. Uning yov qarshisida tezkor paydo bo'lishi, kutilmagan joydan zarbalar berishi salibchilar yuragiga qo'rqu solardi.

**qush – tez uchar bir kabutar bor edi, u qanot qoqib, parvoz qilganda bir tosh masofani dam olmay, bosib o'tardi”**, deydi Navoiy. Kabutar qafasdan chiqib, uzoq parvozdan keyin yurtiga yetib keladi, zolim davron u turadigan uyni xarobaga aylantirgan edi. Odamlar inini topa olmay, ko'kda gir aylanib uchayotgan bechora qushni don sochib, makr bilan tutmoqchi bo'ladilar. Kabutar aylana-aylana vayronasini topib, murodiga yetadi.

Iskandarning Farang va Rum dengizlari orqali qaytishi tafsilotlarida ham kabutar ishtirok etadi.

Navoiy shunday yozadi:

*“Shoh dengizdagi butun jaziralarni fath etib bo'lguncha, Suqrot hakim ham dengiz atrofiyu va sathini o'lchab, hisobini boshdan-oyoq to'g'rilab qo'ydi. Shuningdek, u suvda qanday voqealar yuz bergan bo'lsa, barcha tafsilotini bir xatga yozib, u maktubni puxta o'rab, o'zlari bilan Rumdan olib kelgan bir kabutarning oyog'iga bog'ladi. Uni Rumga*

Dunyo va albatta, turkiy xalqlar tarixiga oid manbalarda qushlar bilan bog'liq hodisa va rivoyatlar shu qadar ko'p, ularda qanotli jonzorlar odamning beminnat yordamchisi, do'sti, elchisi, homiysi, odam ruhining timsoli ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Tur qushi Qaqnus, Semurg', Anqo, Humo, Bulbuligo'yo, Davlat qushi, Kabutar, Baxt qushi... Ular orasida kabutarlar elchi, xabarchi vazifasini bajarib, bu sifat uning ixcham jussasiga to'la mos. Quyida bo'yni kalta, tanasi miqti, qanotlari baquvvat, erkin va tez uchadigan kabutarlar bilan bog'liq rivoyat va hayotiy hikoyalar, ularning xabarchiligiga oid qiziqarli ma'lumotlar to'plandi.

### NUH KABUTARI

Xabarchi qushlar haqidagi ilk ma'lumotlar muqaddas kitoblarda uchraydi.

Nuh alayhissalom kemasi va u bilan bog'liq hikoyalar “Qissasi Rabg'uziyda ham hikoya qilinadi.

To'fon tinganidan keyin “Yer yuzida qancha miqdorda suv qoldi, yerning qancha miqdori ochildi? Buning xabarini menga kim keltiradi? – dedi Nuh alayhissalom.

– Men borayin, – dedi qoraqarg'a.

– Unga kim kafillik bergay? – dedi Nuh. Xo'roz kafil bo'ldi, qarg'a yo'lga tushdi. Ko'rsaki, yerning betida o'liklar ko'p ekan, uni yemakka andarmon bo'lib, kech qoldi. Xo'roz vaqt bo'lganini qarg'aga bildirish uchun kemandi tomiga chiqib, qanot qoqib, uni chorlay boshladi. Qarg'a esa kelavermadi. Nuh alayhissalom xo'rozni ushlab qoldi. Shu bois tovuqlar uchmaydigan bo'lib, odamlar bilan birga qoldilar. Nuh alayhissalom qarg'ani duo qildi, Oллоh taolo uni ijobat qildi. Qarg'aning umri qattiq mashaqqatda, xavotirda oxir bo'lar, chunki u yo'ldan qaytmishda o'ng-u so'lga boqqani uchun.

Nuh alayhissalom kabutarni jo'natdi.

– Tezda xabar keltirgil! – dedi. Yo'lga tushdi. Yer ko'rindi, u soyga qo'nganda oyog'i balchiq bo'ldi. Shu zahotiyoy qaytib kelib, oyog'idagi balchiqni ko'rsatdi. O'sha balchiq oyog'ida tuklarga aylandi. Kabutar qaytishda zaytun daraxtining yaprog'ini olib kelib, Nuhga ko'rgazgach, payg'ambar uni ezgu duo qildi:

– Odamlar senga mehribon bo'lib, uylaridan joy bersinlar!


Oллоh taolo Nuh duosini ijobat qildi.

### SULAYMON KABUTARI

Payg'ambar Sulaymon alayhissalomning maktubini Saba shahri malikasi Bilqisga yetkazgan qushning nomi Hudhud edi. Bilqis Sulaymon alayhissalomning maktubini olgach, “menga bir mukarram maktub keltirildi” deydi va elchi Hudhudga ehtiram ko'rsatadi va iymon keltiradi.

### ISKANDAR KABUTARI

Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida podsho qasridagi qafasdan qutulib, o'z uyiga yo'l solgan kabutar hikoyati bor. **“Shu bitikda voqeasi bayon qilingan xat tashuvchi bir**



1249-yilda fransuzlar Damiyetta portini egallab oladi. Bu haqdagi xabarni hukmdor Nuriddin Zangiyga kabutarlar keltiradi. U qo'shimcha kuchlar kelguniga qadar qo'qqis harakat va tezkor hujum bilan fransuzlarni tormor etadi.

## QUSHBEGI - OLIY LAVOZIM

Kabutarlardan aloqa vositasi sifatida foydalangan hukmdorlar va ular bilan bog'liq tarixiy voqea va rivoyatlar ko'p bo'lsa-da, alohida o'rganilmagan.

Turon hukmdorlari saltanatidagi eng muhim harbiy lavozimlardan biri qushbegi aynan qushlar parvarishi va ularni o'rgatishga mas'ul shaxs hisoblangan.

**O'zbekiston milliy qomusida qushbegiga shunday ta'rif beriladi:**

"QUSHBEGI, qushchi - tarixiy atama. O'rta asrlarda podsho va xonning ovchi qushlari (qushxonasi) va ov hayvonlarining mutasaddisi; ov begi (amiri shikor). U hukmdorning ovini tashkil qilish va o'tkazishga javobgar bo'lgan. Qushchilar "qarchig'aychi" degan nom bilan ham atalgan. Xiva xonligida qushbegi mehtardan keyin turgan. U xonlikning shimoliy qismiga mutasaddi bo'lgan; Qo'qon xonligida qushbegi harbiy qo'shinining boshlig'i bo'lib, bu mansab harbiy yurish va jang paytlarida berilgan. Qushbegi mingboshi unvonini olishga da'vogar bo'lgan".

Bu izohga nima uchun xabarchi qushlar haqida ma'lumot kiritilmagani xat tashuvchi kabutarlar mavzusi jiddiy o'rganilmagandan bo'lsa kerak, degan taxminni yuzaga keltiradi.

## UMARSHAYXNING KABUTARXONASI

Temuriy shahzoda Boburning otasi Umarshayx mirzoning vafoti voqeasi ham kabutar bilan tarixga bitilgan. Bobur yozadi: "Aksi qo'rg'oni baland jar ustida joylashgan. Imoratlari ham jar yoqasida edi. Ushbu yili (1494) dushanba kuni, ramazon oyining to'rtinchisida Umarshayx mirzo jordan kabutarlar va kabutarxonasi bilan uchib halok bo'ldi. O'ttiz to'qqiz yoshda edi".

Bu qisqa ma'lumot matnidagi "kabutarlari va kabutarxonasi" degan ibora Umarshayx kaptarxonasida xabarchi qushlar ham bo'lganini taxmin qilishga asosdir. O'zbekiston Milliy qomusida kabutarlarga berilgan ta'rif ham fikrimizni dalillaydi. "Xonaki kaptarlarning 200 ga yaqin zoti mavjudligi, ular pochta - xabar yetkazuvchi, dekorativ va go'shtdor guruhlariga bo'linadi. Kaptarlar uchganda oson yo'l topadi. Qadimda ulardan xat tashishda foydalanilgan. Hozir faqat ko'ngil ochish maqsadlarida ko'paytiriladi".

Bobur va otasi bilan bog'liq yana bir rivoyat bor, unda ham xabarchi qushlar haqida so'z boradi.

## BOBUR VA KABUTAR

Kunlardan bir kun Umarshayx mirzo saroy a'yonlari bilan qasrda o'tirgan ekan. Bir kabutar uchib kelib, ayvon peshtoqiga qo'nadi, "g'ulu-g'ulu" sini boshlaydi. Podshoh a'yonlaridan "Kabutar ne demakda?" deb so'raydi. Anchadan buyon urushga chiqmagan sarkardalardan biri:

- Oliy hazrat, kabutar qilichlarni qinidan sug'urmoq kerak, demakda, - deydi.

Bir chetda o'tirgan yosh Bobur otasidan izn so'rab:

- Yo'q, kabutar unday demaydir. Sizni qovun sayliga chaqirishgan, u

shuning xushxabarini keltirgan, - deydi. Umarshayx ajabsinib, kabutarni tutishni buyuradi. Uni tutib, oyog'idagi mis halqani olib qarashsa, ichidan maktub chiqadi. Unda "Onhazrat, qovun pishdi. Kelib, qo'l urib bersangiz, bag'oyat mamnun bo'lardik", deb yozilgan edi. Umarshayx o'g'lidan:

- Mirzoning bu qadar bilag'on va topqirligiga bois ne? - deb so'raydi.

- Ota, o'tgan yili ham qovun sayli xabarini shu qush olib kelgan edi. Kabutarining o'ng qanotidagi qora xolni ko'rib, uni tanidim va taxminimni aytdim, - deydi Bobur.

Yosh mirzoning hushyorligi va topqirligiga qoyil qolgan Umarshayx barchani qovun sayliga chorlaydi.

## ALI QUSHCHI, DOROB QUSHCHI, DARVESH QUSHCHI

Mashhur falakshunos va riyoziyotchi olim Ali Qushchining "qushchi" laqabi bilan atalishi uning Mirzo Ulug'bek saroyida qarchig'aylar boqqani bilan bog'liq. Uning otasi Temur qarorgohi boshlig'i edi.

Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" ("Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning qo'shilish joyi") nomli asari temuriylar davriga oid eng muhim manbalardan biridir. Ushbu asarda ham saroy qushlariga mutasaddi bo'lgan Dorob qushchi, Darvesh qushchi nomlari uchraydi.

Shohruxning Xitoy bilan diplomatik aloqalari bayonida ham qushlar bilan bog'liq tafsilotlar berilgan. Ikki o'rtadagi sovg'a-salomlar orasida qushlar ham bor edi. Xitoy mamlakatiga borib kelgan elchilarning hikoyalari bayonida qimmatbaho buyumlar va arg'umoqlar olib borgan elchilarga chin xoqoni asl mollar qatorida bir necha shunqorlarni hadya qiladi.

"Shundan keyin (qushchilariga) shunqor keltirishni buyurdi va bir turnani uchirib, shunqorni qo'ydi; shunqor uni quvib yetib, uch marta tepgach, oldi. Podshoh otdan tushdi, uning oyog'i ostiga bir kursi qo'yilgan edi, (shunqor) yana boshqa bir kursiga tushib qo'ndi. Podshoh shu shunqorni Sultonshohga taqdim qildi va yana boshqa bir shunqorni Sulton Ahmadga berdi".

## KABUTAR TEMUR DAVRIDA

Mashhur tarixchi Xondamirning "Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar" ("Bashar ahli siyaratidan xabar beruvchi do'st") asaridan "Amir Temur Guragonning Bag'dodga yurishi zikri va o'sha paytda yuz bergan ba'zi voqealar bayoni"ni o'qiydiz.

Amir Temur Iroq, Ozarbayjon, Fors, Luriston o'lkalarini fath etishga kirishib yurgan paytlarida Sulton Ahmad Jaloyir sohibqiron itoatidan bo'yin tovlab, poytaxt Bag'doddan birorta chopar yubormaydi. Kunlar o'tib, uning tomonidan sohibqiron huzuriga ulug' mashoyixlardan biri Shayx Abdurahmon Isfaroiniy elchi bo'lib keladi. Amir Temur shayxga hurmat va ehtirom ko'rsatadi. Ammo Sulton Ahmadning sohibqiron nomini xutbada o'qitmagani va pul zarb qilmagani tufayli, uning hadyolari Temurga manzur bo'lmaydi. Shayxga xos libos, ot va zar sovg'a qilinadi.

Shayx Bag'dodga qaytib ketganidan so'ng Sulton Ahmadning xabarchilari sohibqironning u tomonga yurish boshlagani haqida maktub yozib, kabutar jo'natgani ma'lum bo'ladi. Temur maktub yozgan kishini tezlik bilan topishni buyuradi va unga ikkinchi xatni yozdirib, kabutar bilan Sulton Ahmadga uchiradilar. Unda Amir Temur

deb tasavvur qilgani ko'chmanchilar va ularning chorvasi bo'lib, bu to'da chig'atoy lashkaridan vahimaga tushib, panoh istab kelayotgan kishilar ekanligi bitilgandi.

**Maktubga ushbu bayt ilova qilinadi:**

Bag'dodga yetsin deb maktub chorlandi,

Boshqa kabutarga bu xat bog'landi.

Birinchi maktubni o'qigan Sulton Ahmad iztirobga tushib, yuklarini Dajla daryosidan o'tkaza boshlaydi. Ikkinchi maktub esa uni xotirjam qiladi.

Temur jadal yurish bilan Sulton Ahmad qo'shinini parokanda qiladi, u bor-budini yo'lda qoldirib, amirlar ta'qibidan qochadi.

## KABUTAR YEVROPADA

Xabarchi qushlarning Yevropada paydo bo'lishi salibchilarning yurishlari bilan bevosita bog'liq. Ular Nuriddin Zangiy, Salohiddin Ayyubiy kabi musulmon hukmdorlarning mardona qarshiligiga tob berolmay, samarasiz, sharmandalarcha ortga qaytganlarida muhim bir ma'lumot - tajribani ham o'zlari bilan Yevropaga olib boradilar. Bu olamshumul yangilik qushlarning xat-xabarni o'z manziliga eng tez va xavfsiz yetkazishi edi. Mashhur turk qo'mondonlaridan biri Nuriddin Mahmud Zangiy Oqsungur salibchilar bosqiniga qarshi janglarda qushlardan mohirona foydalangan edi.

Yevropada bir necha yuz yil faqat shaxsiy yozishmalar uchun foydalanilgan xabarchi kabutarlardan rasman Fransuz-Prussiya urushida qo'llanildi.

1870-yilda Prussiya armiyasi Parijni qamal qiladi. Qamalda qolgan poytaxt va mamlakatning boshqa hududlari o'rtasida aloqa o'rnatish uchun fransuzlar "Kaptar pochta bo'limi"ni tashkil etadilar. Pochta bo'limi haqidagi maxsus farmonning birinchi bandida shunday yozilgandi: "Har kim mamlakat hududida pochta va telegraf kaptarlari yordamida Parij bilan bog'lanishga haqli. Har bir so'z uchun to'lov haqi 50 santim".

Dushman ham qarab turmaydi, xabarchi qushlarni lochinlar yordamida ovlashga kirishadi. Ammo ayyor fransuzlar qushlarning oyog'iga kichik qo'ng'iroqchalar bog'lab



qo'yishadi. Bu qo'ng'iroqchalarning ovozi kabutarlarga hamla qiladigan lochinlarni jiddiy hurkitar va o'ljadan nari ketishga majbur qilardi.

Urushdan keyin fransuz qo'shini uchun "kaptar pochta" bo'yicha mutaxassislar tayyorlana boshladi.

## KEYINGI SONDA

**Xabarchi qushlar** - kabutarlarning Birinchi va Ikkinchi jahon urushida qo'llanilishi hamda boshqa hodisalardagi ishtiroki haqida gazetamizning keyingi sonida o'qiydiz.

Furqat ERGASHEV,  
"Vatanparvar"





# MOZIYNI UNUTMASLIK SAODATI

Jadidlarning ilk dramalarida asosiy motiv davr manzarasidan bir kichik parchani o'quvchi-tomoshabinga ko'rsatish va bundan ibrat olish, xulosa chiqarishga da'vat nazarda tutilgandi. Xususan, Behbudiyning "Padarkush" dramasi savodsizlikning halokatli oqibatlarini haqida so'z borsa, Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov", Nusratilla Qudratulla va Hoji Muinning "To'y" dramalarida to'ylar mavzusi qalamga olingan. Keyinchalik Abdurauf Fitratning "Abulfayxon" tragediyasi tarixiy mavzuda yozilgan ilk dramaturgik asar sifatida o'zbek dramaturgiyasi taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. "Abulfayxon" tragediyasida nisbatan yaqin o'tmishga murojaat qilingan bo'lib, unda xonliklar tanazzuli, davlatdagi boshboshdoqliklar va parokandaliklar mang'itlar hukmdori Abulfayxon hayoti misolida ko'rsatib beriladi. Mazkur asar tarixiy xronika shaklida emas, aksincha, xonlik tanazzuliga sabab bo'lgan hayotni tasvirlash asnosida umumbashariy muammolar o'rtaga tashlanadi.

Ijtimoiy muammolarning ildizi jaholat va bilimsizlikka borib taqalishi, millatni bu jarlikdan faqat va faqat ma'rifat qutqarishi jadid dramaturgiyasining dastlabki bosqichida asosiy g'oya bo'ldi. Keyinchalik tarixiy mavzular paydo bo'la boshlagach, voqelik tarixiy rakurs orqali qarash an'anasi shakllandi. Bu borada Shuhrat Rizayevning: "Jadid teatri san'atining azaliy va abadiy vazifasi bo'lgan inson ruhiyatining teran badiiy tadqiqini bosh maqsadi qilib belgilamaydi. Chunki ruhiyat inkishofi uchun uni avvalo, g'afat uyqusidan uyg'otish, mutelikdan, qullikdan xalos etmoq kerak edi", degan xulosalari diqqatga molik.

Shu jihatdan, jadidlarning dramaturgiya va teatri o'z g'oyalarning targ'ibotida asosiy dastak bilgani tabiiy holatdir. Yetilgan ijtimoiy shart-sharoit o'zbek teatrining tamal toshini qo'ydi. Fitrat millatga o'sha davrdagi ijtimoiy vaziyatni, maishiy holatni to'g'ridan to'g'ri ko'rsatishdan ko'ra, tarixiy voqelik misolida fojiani ko'lamini kengroq va ta'sirchanroq anglatish mumkinligini g'oyat nuktadonlik bilan tushunib yetgan edi.

Tarixiy mavzudagi dramalarda bevosita davr mafkurasi bilan bog'liq vaziyatdan kelib chiqqan yondashuvni ko'ramiz. Ma'lum bir davrda, xususan o'tgan asrning 40-yillarida o'zbek adabiyotida tarixiy dramalar nisbatan ko'p yaratilgan. Bu davr tarixiy dramaturgiya uchun sermahsul davr bo'lgan. Davrning mafkuraviy muhiti dramaturgiyaning umumiy mavzu va g'oyasiga ta'sir qilmasdan qolmagan. **Ikkinchi jahon urushi yillarida**

**Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi", Hamid Olimjonning "Muqanna", Oybekning "Mahmud Torobiy" kabi dramalari xalqni har tomonlama ruhlantirish va vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash maqsadida dunyoga kelgan.** Ushbu dramalarning yaratilishi bevosita tarixiy zarurat bilan bog'liq. O'zbek dramaturgiyasida tarixiy obrazlar ibtidosi Abulfayxondan boshlangan bo'lsa, keyinchalik Jaloliddin Manguberdi, Muqanna, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Mahmud Torobiy, Amir Temur va boshqa tarixiy shaxslar hayoti va fojiasi tasvirlangan dramatik asarlar yaratildi.

Ikkinchi jahon urushi boshlangan bir davrda tarixiy qahramonlar orqali millatni ruhlantirish, qo'rquvni yengib, Vatan tuprog'ini asrash uchun kurashga o'tlanish, bu yo'lda o'limdan ham tap tortmaslik uchun o'ziga xos da'vat sifatida mazkur dramalar maydonga keldi. Ushbu asarlarga mavzu bo'lgan tarixiy shaxslarga diqqat bilan qaraydigan bo'lsak, Muqanna arablar fathiga qarshi, Mahmud Torobiy va Jaloliddin Manguberdi Chingizxon bosqiniga qarshi mardonavor jang olib borgan. Mazkur asarlarda qahramonlarning muzaffarligi o'limga tik boqishida, dushmanga taslim bo'lmay, to so'nggi nafasga qadar Vatanini himoya qilishida edi, degan xulosa yaqqol sezilib turadi.

**Ikkinchi jahon urushidan keyin nafaqat dramaturgiyada, balki butun adabiyotda tarixiy mavzularga murojaat qilish tendensiyasi pasayib qoldi.**



O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab, konfliktsizlik nazariyasi paydo bo'ldi. Bu holat Sovet davridagi siyosiy-ijtimoiy omillar bilan bog'liq ekanligini aytish joiz. Tarixiy mavzudagi asarlarga Sovet hukumatining bu qadar keskin munosabatiga, umuman, ijodning mafkuraga bo'ysundirilishiga Andrey Jdanovning 1946-yil 14-avgustda Butunittifoq bolsheviklar kommunistik partiyasi Markaziy qo'mitasi tashkiliy byurosida "Zvezda" va "Leningrad" jurnallari haqidagi bayonoti asosiy sabab bo'ldi. Mazkur bayonot e'lon qilinishidan avval sovet davriy nashrlarining mafkuraviy yo'nalishini nazorat qilish, ulardagi mavzular mundarijasini bir tizginga solib turish bo'yicha amaliy harakatlar boshlangan.

Jdanovning bayonotida eng asosiy nishonga olingan ijodkorlar Mixail Zoshchenko va Anna Axmatova bo'lgan. Zoshchenkoning "Quyosh chiqishidan avval" asarida rus

fuqarolarini shahvatparast hayvonlar timsolida tasvirlagani, Axmatovanning she'rlarida esa nekbin va umidli rus xalqi uchun begona bo'lgan "qayg'u, g'amginlik, o'lim va fojia" motivlari keskin tanqid ostiga olingan. Keyinchalik davriy nashrlar bayonotda tilga olingan barcha shoir-yozuvchilarning asarlarini chop etmay qo'ydi. Bu holat ijodiy erkinlikni bo'g'ishga, ijodkorlarni faqat sobiq tuzum chizib bergan chiziq bo'yicha harakatlanishiga xizmat qildi. Natijada sovet hukumatining mafkuraviy standartlariga mos kelmagan asarlar nafaqat chop qilinmadi, balki avval nashr etilganlari ham kutubxonalardan olib tashlandi.

Jdanovning bayonoti ortidan 1946-yil 26-avgustda Tashkiliy byuroning "Drama teatri repertuari va uni yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorda teatrlar repertuaridagi zamonaviy mavzularning kamligi teatrlar faoliyatidagi eng katta kamchilik deya baholandi. Spektakldagi sovet odamlarining xunuk qiyofali, ibtidoiy va madaniyatsiz, didsiz va axloqsiz obraz sifatida tasvirlanishi, salbiy personajlar esa kuchli, irodali va mahoratli xarakterlar sifatida gavdalanirishi, dramatik asarlar syujetidagi voqealarning uydirma ekani, aksariyati yolg'ondan iboratligi, bu spektakllar sovetlar hayotini

ko'rsatadi, degan ayblovni qo'ygan.

Mazkur qarorning 9-bandi Sovet ittifoqidagi barcha avtonom respublikalar uchun muhim topshiriq sifatida qayd etilgan: "Ittifoq va avtonom respublikalar teatri repertuarining o'ta cheklanganligi, mahalliy dramaturglarning uzoq o'tmish mavzulariga ishtiyoqini hisobga olib, San'at qo'mitasi sovet dramaturgiyasining eng yaxshi asarlarini SSSR xalqlarining tillariga tarjima qilish va ularni respublika teatri repertuariga kiritish choralarini ko'rsin". Ushbu ko'rsatmadagi "mahalliy dramaturglarning uzoq o'tmish mavzulariga ishtiyoqini hisobga olish" jumlasini ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda o'zbek adabiyotida tarixiy mavzularga deyarli murojaat qilinmaganining asosiy ildizi deya aytilgan bo'ladi. Tarixga murojaat orqali bugungi kun haqida badiiy mujda berish, ogohlantirish, hurriyat uchun da'vat etish motivlari sovet hukumatiga ayon bo'lib ulgurandi.

Rus yozuvchilarining asarlarida ham ayni shu xususiyatlar bo'rtib ko'rinsa boshlagani sovet hukumatini sergak torttirgan va bu holatlarga qarshi keskin chora ko'rgan. Natijada, Jdanovning bayonoti orqali barcha gazeta va jurnallarga senzura o'rnatilib, g'oyaviy qarashlari sovet hukumatining kommunistik mafkurasiga to'g'ri kelmagan asarlar nashr ettirilmadi, ularning mualliflariga taqiq qo'yildi, intizomiy choralar ko'rildi. Buning oqibatida yozuvchi-shoirning ijodiy erkinligiga chek qo'yildi. "Drama teatri repertuari va uni yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror bilan esa barcha teatrlar nazoratga olindi va kommunistik mafkuraning yo'rig'i bilan ishlashga majburlandi.

Mazkur cheklovlar ortidan kommunistik mafkura hukmronligidagi sovet jamiyatida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar, ya'ni konfliktlar bo'lmisligi kun tartibiga chiqdi. Sovetlar nazdida jamiyat sotsializm qurish yo'lidan borarkan, hech qanday qarama-qarshiliklar bo'lmaydi va natijada "konfliktsizlik nazariyasi" nomli shartli tushuncha paydo bo'ldi. Natijada haqqoniy hayot manzaralari yolg'on bilan pardalandi, jamiyatdagi barcha ziddiyatlar rad etildi, sotsialistik tuzum tasavvuridagi yuzaki va soxta jamiyat ulug'lana boshlandi. Bu holat adabiyot va teatr san'atida badiiy saviyasi quyi, zamonbop asarlarning ko'payib ketishiga olib keldi.

Mustaqillik davrida tarixga munosabat o'zgargani bu davrda yana tarixiy asarlar yaratilishiga turki berdi. Sovet davrida biryozlama talqin etilgan tarixiy shaxslar haqida nisbatan xolis, real faktlar asosida, tarixiy shaxsning badiiy qiyofasi, hayot yo'li to'g'ri talqin qilingan asarlar yaratila boshlandi.

**Xurshid SEROBOV,**  
Ijtimoiy-ma'naviy  
tadqiqotlar instituti  
ilmiy xodimi

She'riyat jangohi

# EGILGAN BOSHLARNI QILICHLAR KESSIN

## TURKIYLAR

Qilichin tashladi beklar nihoyat,  
bosildi tulporlar,  
tig'lar suroni,  
urhoga o'rgangan tillarda oyat,  
turkiylar tanidi komil Xudoni.

Qilichlar zangladi...  
falokat hushyor,  
turkiylar quvvatin berdi yerlarga.  
Hiylagar do'stlarday yaqinlashdi yov  
komillik qidirgan jasur erlarga.

Ilvasin yigitlar,  
bobur yigitlar,  
sajdaga bosh qo'ydi yovga ters qarab,  
g'ullarni kemirib yig'ladi itlar,  
buyuk boshni kesdi qilich yaraqlab.

Turkda bosh qolmadi...  
qolmadi dovlar,  
xotin-xalaj qoldi motam ko'tarib,  
"Bizga tik qarama", – buyurdi yovlar,  
yovlarga ters qarab yashadi bari.

Talandi samoviy tulpor uyuri,  
talandi zarlari,  
zeb-u zabari,  
"Ters qarab o'ling", – deb yovlar buyurdi,  
yovlarga ters qarab jon berdi bari.

Lahadga kirdilar o'zlarin qarg'ab,  
qolmadi arabiy,  
turkiy xatlari.  
"Tug'ingiz, – dedi yov, – teskari qarab",  
yovlarga ters qarab tug'ildi bari.

Tug'ildi,  
tug'ildi,  
tug'ildi qullar,  
qirqida qirqilgan – imdodga muhtoj,  
yovlarga ters qarab itlarday hurar,  
bir-biriga dushman,  
bir-biridan koj.

Jo'mardlar qirilgan Turonzaminda  
do'zaxiy tajriba pallasin ko'rdim:  
eshshak suvrati bor qay bir qavmda,  
qay birida to'ng'iz kallasin ko'rdim.  
Bu holda buvaklar bo'g'ilib o'lar,

qul Bilol ezilib yig'lar falakda...  
O'zlarin yondirar borliqdan to'ygan,  
Badaxshon la'liday asl malaklar.

Mo'minlar besh bora Allohni eslar,  
sajdaga bosh qo'yib jallod toshiga.  
O'grilib sal ortga qarayin desa,  
boshiga urarlar,  
faqat boshiga.

Bormi er yigitlar,  
bormi er qizlar,  
bormi gul bag'ringda jo'mard nolalar,  
bormi bul tufroqda o'zligin izlab,  
osmon-u falakka yetgan bolalar.

Bor bo'lsa,  
alarga yetkarib qo'ying,  
bir boshga bir o'lim demagan ermas,  
shahidlar o'lmaydi,  
bir qarab tuying:

Yovga ters qaragan musulmon emas!  
Yovga ters qaragan musulmon emas!  
Yovga ters qaragan musulmon emas!  
Yovga ters qaragan musulmon emas!  
Yovga ters qaragan musulmon emas!

\* \* \*

Jangda o'lgan emas biror bahodir,  
bari halok bo'lgan xiyonatlardan,  
toshday uxlaganda to'shlarin ochib,  
yo zahar qo'shilgan ziyofatlardan.

Biror asotirda bahodirlarni,  
hattoki yuz boshli ajdar yemagan,  
ming bir sinoatli yalmog'izlar ham  
tog'larni o'ynagan devlar yengmagan.

Bari halok bo'lgan xiyonatlardan,  
bariga orqadan sanchilgan xanjar.  
Shunday bo'lib kelgan azal-u azal  
Mana shu jafokash, ko'hna Vatanda.

Har gal bahodirlar yiqilar ekan,  
kurakka sanchilgan nomard tig'idan,  
qayta tirilganday bo'lardi nogoh  
har bir bolakayning qorachig'ida.

Ishongil, hech qachon seni aldamas,  
sofdil elatlarning asotirlari,  
birorta bahodir o'lganmas jangda,  
qo'rloqlar o'ldirgan bahodirlarni.

\* \* \*

Hali biror ishni uddalamadim,  
hali hech kimsani qilmadim rozi,  
behuda o'tibdi go'zal umrimning  
qanchalab chiroyli bahori, yozi.  
Farog'at borligin unutib qo'ydim,  
bag'rimga chaqinlar tegdi daf'atan,  
Sendan-da ulug'roq narsa yo'qligin  
sochim oqarganda angladim, Vatan!  
Buncha kech angladim,  
nega muncha kech...  
anglasam, loaqal o'ttiz yil avval,  
loaqal tug'ilmay turib anglasam...  
Ko'rgan bo'larmidim seni mukammal.

Hali asl Vatan bo'lmog'ing uchun  
ovozi toshlarni yorar kuychilar,  
qanchalab sehrgar shoirlar kerak,  
qancha bilim kerak,  
qancha kuch-chidam.  
Umrin ko'chkilarday jimjit, shiddatli,  
butkul tinmoq uchun bir kun bemalol  
faqat yaxshi bo'lmoq judayam kamdir,  
juda kamlik qilar yashamoq halol.  
Naqadar kechikib angladim seni,  
chaqinlar yo'q qilsa meni daf'atan,  
ayt, qandoq chidayman bunday xo'rlikka,  
ayt, qandoq yotaman qa'ringda, Vatan!



Shavkat RAHMON,  
*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan  
madaniyat xodimi, shoir*

## VATAN

Joylashgansan shunchalar chuqur...  
O'z tubiga yashirgan yurak.  
Senga yetib bormaklik uchun  
Uzun umrim yetmasa kerak.

\* \* \*

Sahar turdim, quyoshni kutdim,  
Shudringlarda chaydim yuzimni.  
Buloqlarga labimni tutdim  
Va borliqda ko'rdim o'zimni.

Ko'zlarimdan toshdi shuurim,  
To'lib ketdi bag'rimga navo.  
Mangulikday tuyuldi umrim,  
Mangulikday tuyuldi dunyo...

## QASAM

Shavkat Rahmon degan  
bir o'jar shoir,  
bir kuni qaytadan yaraladimi?  
Hayotim ma'nisin juda ko'p o'ylab,  
sayladim so'zlarning  
saralarini.  
Har bir so'z  
yuz so'zning o'rnini bosar –  
Vatan, Xalq, Jasorat, Kurash, Ozodlik.  
Har bir so'z yetajak yuzta umrimga,  
Har biri baxsh etar  
ruhimga shodlik.  
Hozirlik ko'rarkan buyuk safarga,  
pushtirang pardali minglab darchadan  
mo'ralab o'tirgan go'zal so'zlarni  
qoldirib ketaman endi barchaga.  
Aslida atirgul bo'yin taratgan  
bu o'ynoqi so'zlar menikimasdir.  
Menga nonday zarur qilichday keskir,  
zaharday mard so'zlar bo'lsayoq basdir.  
Sayladim so'zlarning saralarini,  
kurashlar shamoli kirdi nazmimga.  
Yurtimni kezaman, endi har narsa –  
egilgan narsalar tegar g'ashimga.  
Endi ishlash kerak bu kengliklarda,  
tokim so'ylamasin yolg'onni hech kim,  
tokim buyuk tog'lar saltanatida  
egilgan boshlarni qilichlar kessin.



Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshida paydo bo'lgan ma'rifiy, siyosiy, ijtimoiy harakat sifatida tarixdan o'rin olgan.

Bu harakatning maqsadi xalq va mamlakatni o'rta asrlarga xos qoloqlik, diniy xurofotdan ozod qilish, shariatni isloh etish, xalqqa ma'rifat tarqatish, millatning mustaqil davlatini tashkil etish uchun kurashdan iborat bo'lgan. Eng muhimi, Turkiston jadidlarining bu boradagi harakat va kurashi mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, dastlab Buxoro amirligi va Xiva xonligida demokratik tuzumni barpo etish orqali farovon jamiyat qurish, barqaror milliy pulni joriy qilish, mudofaa qo'shinlarini tashkil etishdan iboratdir. Ana shu maqsad butun Turkiston o'lkasi taraqqiyparvarlarini yagona safga birlashtirdi.

Turkiston hududida jadidchilik harakati asoschilari va faol kurashchilari sifatida Samarqanddan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy, toshkentlik Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla

Asadullaxo'jayev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, buxorolik Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadridin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, xorazmlik Polvonniyoz hoji Yusupov, Bobo'xon Salimov,

Farg'ona vodiysidan Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho'lpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Is'hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda singari siymolarni ko'z oldimizga keltiramiz. Aslida jadidchilik harakati

XIX asrning oxirida hozirgi Qrimda Ismoilbek Gaspirali tashabbusi va rahbarligida dunyoga keldi. Ular o'zlarini taraqqiyparvarlar, jadidlar – yangilik uchun kurashuvchilar, deb atashgan.

Jadidlar o'zlarini yashayotgan jamiyat va davlatning jahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, buning uchun siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohot zarurligini tushunib yetganlar. Ular orasida yetuk olimlar, iqtisodiyot va dehqonchilikning bilimdonlari, madaniyat va san'at arboblari bo'lganligi bois har bir sohada islohot va yangilikni joriy etish tashabbusi bilan maydonga chiqdilar.

Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tataristondagi jadidchilik harakatlarining mushtarak maqsadlari bor edi. U ham bo'lsa, yurtni ozod, xalqni erkin va bilimli, savodli diniy xurofotlarni cheklashga doir tushunchasi shakllangan holda ko'rish edi. Afsuski, bu ulug' maqsad amalga oshmadi. Avval Chor Rossiyasi, so'ngra Bolsheviklar davlati tazyiqi va qat'iy qarshiligiga duch kelgan jadidchilik harakati aro yo'lda tugatildi. Yuzlab, minglab qurbonlar berildi. O'tgan asrning o'ttizinchi va elliginchi yillarida kommunistlar tomonidan uyushtirilgan qatliom natijasida davlat, jamiyat va xalq fidoyilari butkul "supurib" tashlandi. Hatto ularni yodga olganlar ham qattiq siquv va nazorat ostida qolganligi bor gap.

Jadidlar va ularning ezgu maqsadlari haqida o'ylar ekansiz, beixtiyor, bugungi Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy,

ijtimoiy siyosatning yo'nalishi, mazmun-mohiyati bevosita jadidlar faoliyati bilan hamohang ekaniga shohid bo'lasiz. Chunki mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadi ham bundan bir asr avval jadid bobolarimiz ko'zlagan maqsadlarni ko'z oldimizda namoyon etadi.

Keyingi 6-7 yil mobaynida mamlakatimizda amalga oshirilgan va istiqbolda rejalashtirilgan ulug' maqsadlar mohiyati ham xalqni farovon etish, ma'naviyatni mustahkamlash, azaliy qadriyatlarini tiklash borasida dadil qadam tashlanayotganini butun dunyo tan olmoqda. Bugun butun olam nigohi bizga qaratilgan. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar hayotning barcha jabhalarida o'z natijasini berayotganligi ham xalqaro e'tiborga molik bo'lmoqda.

O'zbekistonning eshiklari pok niyatli, ezgu maqsadli barcha insonlar uchun ochilganligi bu boradagi muhim qadam bo'ldi. Mamlakatimizning tashqi siyosat bobida o'ziga xos va mos bo'lgan, boshqalarnikidan keskin farq qiladigan harakatlari ko'plab davlatlarda ham qiziqish uyg'otmoqda.

Zero inson huquqlarini himoya qilish, erkinliklarini ta'minlash borasida ko'pchilik mamlakatlar erishmagan yutuqlarni qo'lga kiritdik. Jadid bobolarimizning ezgu niyatlari O'zbekiston tuprog'ida bugun amalga oshayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Shuning o'zi biz uchun faxr-iftixor emasmi?..

**Dilorom BUZRUKOVA,**  
Farg'ona davlat universiteti  
katta o'qituvchisi

## Mujda

# GO'ZAL KUZ SEHRI

Kuz faslini beixtiyor nuroniy bobo-yu momolarga qiyoslaginiz kelaveradi. Uning sehri shiviriga quloq tutib, sokin bag'riga singib borganingiz sari, umr o'tkinchi, hayotning har lahzasi qadrlil ekanini anglaysiz.

Bilaman, ilkingizdagi hayot yuki, turmush tashvishlari, oila yumushlari behisob. Donolarimiz hayotning har lahzasi kurashdan iborat deganlaridek, yashash uchun kurashasiz, shoshilasiz, tinmaysiz. Biroq yo'l-yo'lakay bo'lsa-da, tabiat bag'rida biroq tin oling, kuzning sehri bag'riga bosh qo'ying. Negaki, hassos tabiatning bu chiroyi – mo'jizasi ham aynan Siz uchun. Kuz malikasi oyoqlaringiz ostini oltin sochqilari bilan bezaydi, ruhingizga ajib sokinlik, bag'ringizga halovat bag'ishlaydi. Bog'larni sayr qilganingiz sari ruhingizda ajib sokinlik sezasiz, vujudingizga halovat singib boradi. Hayot sinovlari, turmush tashvishlarida toliqqan qalbingizdan dardingizni oladi, malham bo'ladi.

Kuzni donishmand fasl deya tarflashadi. Kechagina ko'zlarni quvontirgan ko'm-ko'k yaproq xazonga aylanib, shamolda piri-pirab vido qo'shig'ini aytmogda. Poyingizga to'kilayotgan za'faron barglar umr o'tkinchi, hayot g'animat, uning har lahzasi omonat

va qadrlil ekanidan so'zlaydi. Hassos tabiatning bu holati inson umriga o'makdir.

Kuzni saxovat fasli deya tarflashadi, e'zozlashadi. Bobodehqonning erta bahordan qilgan zahmatli mehnati aynan shu faslda cho'ng xirmon bo'lib, qad rostlaydi. Bug'do-yu paxta, sholi-yu jo'xori, sabzi-yu kartoshka, behi-yu olma-anor... Qo'yinki, inson uchun zarur tabiat ne'matlarining barchasi omborlardan joy oladi. Darhaqiqat, kuz – to'kinlik fasli, kuz – halovat fasli.

Aziz zamondosh, tinchlig-u omonlikda, erkin-u salomatlikda ishga otlanyapsiz. Kuz tongida turli yumushlar bilan shoshilayotgan odamlar oqimiga qo'shilasiz, beixtiyor shukrona keltirasiz. Chunki sizning qadoq qo'llaringiz, aql-u shuuringiz, yuksak iqtidoringiz, fidoyiligingiz sabab, hayot sayqallanadi, insonlar bahra oladi. Siz muallima, siz shifokor, siz Vatan posboni... Bir so'z bilan aytganda, siz zahmatkash ishchi-xizmatchi. Sizning jamiyatga qo'shajak zarra hissangiz ham ulkan o'zgarishlarga qodir. Shunday ekan, o'zingizni asrang, bir nafas hayot tashvishlarini unuting, donishmand kuz hukmronlik qilayotgan tabiat bag'rida hordiq chiqaring, sirlashing, dillashing. Shoirona aytganda:

Sen kuzning bag'riga bosh qo'yanmisan?  
"Cho'li iroq" kelar uning ko'ksidan.  
Qoshida sir aytib o'ltirganmisan?  
Sirlashga malaklar tushar ko'kidan.  
Chehrasi nuroniy momoga o'xshab,  
Miskin o'lan aytib o'tar qoshingdan  
Poyingga zarhaldan poyandoz to'shab,  
Oltin sochqilarin sochar boshingdan...

Sen kuzning bag'riga bosh qo'yanmisan?  
Undayin vafodor sirdosh topilmas.  
Sokin so'qmoqlari dardingga malham,  
Osuda bog'larda tin ol bir nafas.  
O'ksik yuragingni bag'riga olib,  
G'amlaring allalab uxlatib qo'yar,  
Qalbing saroyiga chin naqqosh bo'lib,  
Yog'dudek hayotbaxsh orzular o'yar.

Sen kuzning bag'riga bosh qo'y, bilasan...

**Zulfiya YUNUSOVA,**  
"Vatanparvar"






## Mulohaza

Insonlardan necha yoshga kirganlarini so'rashni madaniyatsiz savol, deb hisoblaydilar. Bu yozilmagan qonun noqulay vaziyatga solmaslik maqsadida o'ylab chiqarilgan bo'lsa kerak. Tavallud ayyomini kimdir yuzda kulgi, yana kimdir yurakda tashvish bilan qarshi oladi. "Yana bir yoshga ulg'aydimmi?!" Bu yoshlikka intiladiganlar xavotiri, bebaho yoshlikka esa deyarli hammamiz intilamiz. Nisbatan olganda qizlar o'zlarini yoshroq ko'rsatishga harakat qiladi (buning sababi bor), yigitlar esa yoshlariga yosh qo'shib, o'zlarini ulg'aygan va har jihatdan ustun his qilishni yoqtiradi (negaligini bilmayman).

# ANGLAGAN LAHZANGIZ umringizdir

Men bir necha yil oldin yoshimni aytishga uyalardim. "Voy, shunaqa kichkina qizmisiz?" kabi "reaksiya"lardan to'yib ketganimdan yigitlar uslubidan foydalanib, yoshimga yosh qo'shib yoki ayni paytdagi emas, endi to'ladigan yoshimni aytishni yaxshi ko'rardim. Keyinchalik bu shart bo'lmay qoldi. Tug'ilgan kunida xafa bo'ladigan yoshga yetishimga esa hali vaqt bor. Lekin men bundan oldin "evrika" deyishga arzigulik falsafani tushundim. Yosh – nisbiy, mutlaqo nisbiy narsa. Taxmin qilmang, aytmoqchi bo'lganim ko'ngil yoshligi masalasi emas. Aqlimizning ancha yoshligi masalasidir.

Bu fikrga kelishimga menga bir aforizm turtki berdi. "Anglangan lahzalar umr hisoblanadi". Bu tushunolgan o'quvchi uchun gangitib qo'yadigan so'z. Anglangan lahza umr hisoblanadigan bo'lsa, men qancha lahzani angladim? Qancha umr



ko'rdim? 100 ga kirib, televizorda hammaning havasini keltirayotgan otaxon aslida necha yoshda? Qancha vaqtini anglay oldi?

Men o'zlingizni anglashga chaqirayotganim yo'q, so'zlarimda zarracha nasihat sezgan bo'lsangiz, davomini o'qimang. Bu – mutlaqo tabiiy va biz xato o'ylab yurgan narsa ekanini aytmoqchiman xolos. Umr o'tishi oson. Ertalab uyqudan uyg'ongach, 4 soat to'shakda xayol surib yotsak ham, xo'roz qichqirmasdan turib, g'imir-g'imir qilsak ham, umr o'tadi. Agar men birinchi usulda 10 yil vaqt o'tkazsam-u, qo'shnim ikkinchi yo'lni tanlasa, ikkimiz ham baravar ulg'ayamiz. Yoshga doir imkoniyatlarimiz teng hisoblanadi. Siz bolangizga 2 yoshida kitob olib berdingiz, qo'shningiz 1 sentabrdan 2 kun oldin bu ishni qildi. Farzandlaringiz teng – 7 yoshdan maktabga chiqdi. Ular tengdosh, ha, jismonan teng hisoblanadi, jamiyat har ikkisini ham baravar qabul qiladi.

Mentalitetimizga xos odat – kattaga hurmat. Avtobusda kattalarga joy beramiz, do'konda kattalarni navbatsiz o'tkazib yuboramiz. Oilada ham. "Akangning aytganini qil – u sendan katta", "Opangga qarashib yubor – sen kichkinasan". Aslida kim kattaligini to'g'ri farqlay oldikmi? Axir anglangan lahzalargina umr-ku! 16 yoshli o'spirin atrofidagi 40-50 yoshdagilardan ko'proq o'ylagandir, ko'proq o'qigan, mushohada qilgandir, balki? 20 yosh tengdoshim emas, 10 yosh men bilan teppa-teng bo'lib chiqsa-chi? Yo'q, biz buni tan ololmaymiz, ko'rib-bilib tursak ham, bir-ikki yosh tanishimizdan yordam olishni or deb bilamiz. Bayram kunlari xursandchilik qilishni, tilaklar eshitib, sovg'alar olishni, ichdan "bir yoshga ulg'aydim", deb xafa bo'lib qo'yishni bilamiz-u, bir yil, aqalli, o'tgan va bu yil orasidagi anglangan lahzalarimizni hisoblab ko'rish xayolimizga ham kelmaydi.

Agar yosh ham jismoniy o'sishga qarab bevosita emas, ilmiy darajalar singari ma'lum ishni qilgandan so'ng uni oqlagan insonga berilganda (bu albatta bo'lmaydigan narsa), "yosh ko'rinaraksiz" so'zi "kompliment" emas, haqorat deb qabul qilingan bo'larmidi? Shunda tug'ilgan kunimizni nishonlasak yarasharmidi...

Hayot bamisoli internet foydalanuvchisining "onlayn-offlayn" holati. O'z maqsadingizga egamisiz, qilayotgan ishingizning mazmunidan xabardormisiz, yangi fikrlarga egamisiz, eshitishdan tashqari sizni ham boshqalar eshitishiga undayapsizmi, hech bo'lmasa, mahmadonlik qilib turibsizmi – siz "onlayn"siz, siz tiriksiz! Kuningiz o'tsa bas, hayotda maqsadingiz ham, orzuingiz ham yo'q, kim nima desa ergashasiz, boshqalarning gapini to'g'ri hisoblaysiz, taqiqlarga qarshi kurashmaysiz, vaqtingizni tejamayisiz – siz "offlayn"siz, siz shiddatkor hayotda yashamayapsiz, ma'nan yoshingizga yosh qo'shilmayapti.

"Anglangan lahzalar umr hisoblanadi" aforizmi, haqqoniylik bilan aytganda, hammaga ham go'zal o'ylarni, o'z umrini sarhisob qilish imkoniyatini bermaydi. Shaxsan o'zim endi boshqacha qaray boshlayapman. "Yosh – nisbiy tushuncha. Nega men amakiga navbatimni berishim kerak? Aksincha, men undan yoshman, o'qish-ishim bor, undan ko'ra bandroqman-ku", "Nega gap qaytarmasligim kerak? Kim kafolat beradi bu domla chindan ham mendan, do'stlarimdan kattaligiga? Balki, umrining 1 yilinigina anglagandir?" Bu masalaning boshqa tomoni. Sizga rostini aytgan holda, bunday o'ylashni unchalik tavsiya qilmagan bo'lardim. Yana o'zingiz bilasiz.

Balki, endi yoshingizni so'rashganda javob berishga ikkilanib qolarsiz? Balki, tavallud ayyomingizda bir yoshga ulg'ayganlik emas, shu yoshga loyiq-loyiq emaslik o'yi sizni qiynar? Nima bo'lganda ham anglangan lahzalar – umringiz qanchaligini hisoblab chiqib, boshingiz qotishi aniq. Asosiysi, har doim ham yosh bilan hisoblashmang. Agar bunga jon-jahdingiz bilan yopishib olsangiz, "Men hali bunga yoshlik qilaman, qo'limdan kelmaydi" yoki aksincha, "Yosh bolamidim? Bu ishlarni o'zimga ep ko'rmayman", deya cheklovlar girdobiga tushib qolasiz va sodda qilib aytganda, ko'p narsadan quruq qolasiz!

"Anglangan lahzalargina umr hisoblanadi" fikriga unchalik tushunolmagan yoxud qabul qilolmayotgan bo'lsangiz, sizga boshqa tanish iborani aytaman: "Aql yoshda emas, boshda".

## Ma'rifat

## Ustuvor yo'nalishlardan biri

Har qanday davlat taraqqiyot yo'li, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasi bilan chambarchas bog'liq. Shu ma'noda O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Binobarin, yurtimizda kelajak avlod taqdiri bilan qiziqmaydigan va qayg'urmaydigan o'zbek oilasi bo'lmasa kerak. Xalqimiz farzandi kelajagi uchun tinimsiz mehnat qiladi, ertasi farovon bo'lishi uchun qayg'uradi. Maqsadi esa uni sog'lom, dono, mard va komil inson bo'lib voyaga yetkazishdir.

O'z o'rnida har bir o'sib kelayotgan yosh avlod Yangi O'zbekistonni barpo etishda o'zining cheksiz sadoqati, jonkuyarligi, millatiga, xalqiga xizmat qiladigan, yetuk, komil inson bo'lib yetishishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Qurolli Kuchlar akademiyasida "Milliy iftixor, burchga sadoqat va jasorat" tamoyili asosida harbiy kadrlarni tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Akademiyada yoshlarning ta'lim-tarbiya masalasida professor-o'qituvchilar milliy mafkuraga yondashgan holda, ya'ni xalq manfaati, yurt tinchligi va Vatan ravnaqi kabi asosiy mezonlarga tayanib, xizmat faoliyatini olib bormoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda Qurolli Kuchlarimizda jangovar salohiyatni oshirish, harbiy qurilish sohasini tubdan modernizatsiya qilish va olib borilayotgan islohotlar natijasida milliy armiyamizda sifatli o'zgarishlar ro'y bermoqda, uning saflarida xizmat qilish tom ma'noda shon-sharafga aylanib bormoqda. Bu borada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, albatta biz, professor-o'qituvchilar tarkibi akademiyada tahsil oluvchilarni ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoyi "jangchi" etib tarbiyalash ishlarini yanada izchil davom ettirishimiz lozim bo'ladi va kelgusida Qurolli Kuchlar safiga yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, nostandart vaziyatlarda tez va to'g'ri qaror qabul qila oladigan mahoratli professional kadrlarni yetkazib berish asosiy vazifalarimizdan biri bo'lib qoladi.

Podpolkovnik G'. SABIROV,  
Qurolli Kuchlar akademiyasi  
katta o'qituvchisi

Durdona ALIMOVA



# “PARIJ-2024” YOZGI PARALIMPIYA

## O‘YINLARIDA HAM O‘ZBEKISTON TARIXIY NATIJA QAYD ETDI

Fransiya poytaxti Parij shahri mezbonlik qilgan XVII yozgi Paralimpiya o‘yinlari yakunlandi. Unda qatnashgan o‘zbekistonlik parasportchilarning medallar soni 10 ta oltin, 9 ta kumush, 7 ta bronza, jami 26 ta medalni tashkil etdi. Ushbu natija bilan delegatsiyamiz Paralimpiya o‘yinlarini 168 ta mamlakat orasida 13-o‘rinda yakunladi. Sovrindorlar safidan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari ham o‘rin oldi.



Gazetamizning o‘tgan sonida matonatli va irodali sportchilar o‘rtasida tashkil etiladigan to‘rt yillik o‘yinlarning bu galgisiga para atletlarimiz keng tarkibda, ya‘ni O‘zbekiston paralimpiyasi tarixida rekord ko‘rsatkich delegatsiya bilan yo‘l olgani hamda ayni avj pallaga ko‘tarilgan XVII yozgi Paralimpiya o‘yinlarida erishilayotgan natijalar ham shunga yarasha yuqori bo‘layotgani xususida ma‘lumotlar bergandik. Parayengil atletikaning F41 klassida yadro uloqtirish bahslarida ishtirok etgan para atletimiz Bobirjon Omonov 14.32 metr natija qayd etib, “Tokio – 2020” yozgi Paralimpiya

o‘yinlarida o‘zi o‘rnatgan rekordni yangilashga erishgan holda to‘rt yillik nufuzli musobaqaning yana bir karra oltin medali sohibiga aylanganidan so‘ng yurtimiz sport muxlislari diqqat-markazidagi katta sahnaga paraatletlarimiz Sherzod Namozov va Xusniddin Norbekov ko‘tarildi.

Paradzyudo bo‘yicha -60 kg vazn toifasida (J2) yurtimiz sport sharafiga himoya qilgan Sherzod Namozov finalda gruziyalik Zurab Zuraiani mag‘lub etdi va faoliyati davomida ikkinchi marta Paralimpiya o‘yinlarining oltin medaliga sazovor bo‘ldi.

Paraatletimiz Xusniddin Norbekov esa faoliyatida uchinchi marta Paralimpiya o‘yinlarining oltin medalini qo‘lga kiritgan ilk o‘zbekistonlik sportchiga aylandi. Xusniddin bundan avval “Rio – 2016” va “Tokio – 2020” yozgi Paralimpiya o‘yinlarida ham oltin medalga sazovor bo‘lgan edi. Boz ustiga, “Parij – 2024” yozgi Paralimpiya o‘yinlarining yadro uloqtirish (F35) bahslarida qatnashgan hamyurtimiz 16.82 metr natija qayd etib, Paralimpiya o‘yinlari rekordini ham yangiladi. Barakalla!

Shu kuni biz uchun yana bir ajoyib voqealik yuz berdi. XVII yozgi Paralimpiya o‘yinlarining disk uloqtirish (F37) bahslarida qatnashgan hamyurtimiz Tolibboy Yo‘ldoshev diskni 57.28 metrga uloqtirib, oltin medalni qo‘lga kiritdi. E‘tiborli jihati, Tolibboy bir necha kun avval yadro uloqtirish bahslarida ham qatnashgan va bronza medalga sazovor bo‘lgan edi.

“Parij – 2024” yozgi Paralimpiya o‘yinlarining sovrindorlari qatoridan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakillari ham o‘rin oldi. Jumladan, balandlikka sakrash (T64) bahslarida qatnashgan MVSM vakili Temurbek Giyazov 2.03 metr balandlikni zabt etdi. Paraatletimiz ushbu natijasi evaziga bronza medalni qo‘lga kiritdi. Ertasi kuni MVSMning yana bir vakili – Ro‘za Qo‘ziyeva XVII yozgi Paralimpiya o‘yinlarining shohsupasiga ko‘tarildi. Musobaqaning parapauerlifting bahslarida -73 kg vazn toifasida yurtimiz

sharafiga himoya qilgan MVSM vakili 147 kg toshni o‘ziga bo‘ysundirdi va kumush medalga sazovor bo‘ldi. Qayd etish lozim, Ro‘za bahslar davomida ikki marotaba Paralimpiya o‘yinlari rekordini yangiladi. Lekin... braziliyalik Mariana D’Andrea 148 kg natija bilan yakunda oltin medalni ilib ketdi. Eslatib o‘tamiz, MVSM vakili Ro‘za Qo‘ziyeva “Tokio – 2020” Paralimpiya o‘yinlarida ham kumush medalga sazovor bo‘lgan edi.

Parayengil atletika bo‘yicha terma jamoamiz a‘zosi Shahina Yigitaliyeva O‘zbekiston tarixida Paralimpiya o‘yinlarida ishtirok etadigan eng yosh sportchi sifatida Parijga yo‘l olgandi. U 2008-yil 19-oktabrda tug‘ilgan. 15 yoshli sportchimiz o‘ziga bildirilgan ishonchni oqladi. XVII yozgi Paralimpiya o‘yinlarining nayza uloqtirish (F36) bahslarida qatnashgan Shahina nayzani 43.12 metrga uloqtirib, kumush medalni qo‘lga kiritdi.

Musobaqaning so‘nggi kunlari ham paraatletlarimiz o‘z nomlarini “Parij – 2024” yozgi Paralimpiya o‘yinlarining sovrindorlari ro‘yxatiga yozdirib qo‘yishda davom etdi. Jumladan, parayengil atletikachimiz Safiya Burxonova F12 klassida yadro uloqtirish bahslarida kumush medalga sazovor bo‘ldi. Hamyurtimiz musobaqada 14.12 metr natija qayd etdi. Paradzyudochimiz Kumushxon Xodjayeva ham o‘z ismiga monand medalni qo‘lga kiritdi. J2 klassida -57 kg vazn toifasida bellashgan Kumush so‘nggi final bahsida yaponiyalik Xirose Junkoga imkoniyatni boy berdi



va delegatsiyamiz hisobiga navbatdagi kumush medalni qo'shib qo'ydi. Shuningdek, paradyudo bo'yicha erkaklar o'rtasida J2 klassida -73 kg vazn toifasida bellashgan vakilimiz Uchqun Quronboyev bronza medalni qo'lga kiritdi.

XVII yozgi Paralimpiya o'yinlarida yana bir sportchimiz rekordchiga aylandi. Ayollar o'rtasidagi nayza uloqtirish (F54) bahslarida mamlakatimiz sharafigi himoya qilgan Nurxon Qurbonova nayzani 21.12 metrga uloqtirib, jahon rekordini yangiladi va musobaqaning oltin medaliga sazovor bo'ldi. Ma'lumot uchun: Nurxon Qurbonova F54 klassida nayza uloqtirish bo'yicha joriy yil Yaponiyada bo'lib o'tgan dunyo birinchiligida 20.73 metr natija bilan jahon rekordini o'rnatgan edi. Eslatib o'tamiz, Nurxon Qurbonova bundan avval "Tokio - 2020" yozgi Paralimpiya o'yinlarida kumush va bronza medallarni qo'lga kiritgan.

O'zbekiston delegatsiyasi hisobidagi XVII yozgi Paralimpiya o'yinlarining so'nggi medaliga "Tokio - 2020" yozgi Paralimpiya o'yinlarida kumush medalga sazovor bo'lgan paradyudochimiz Dovurxon Karomatov erishdi. J2 klassida -90 kg vazn toifasida bellashgan hamyurtimiz yakunda "Parij - 2024" yozgi Paralimpiya o'yinlarining bronza medalini qo'lga kiritdi.

## **XVII YOZGI PARALIMPIYA O'YINLARIDA G'OLIB VA SOVRINDOR BO'LGAN O'ZBEKISTON SPORTCHILARI**

### **OLTIN MEDAL:**

Asila Mirzayorova - parayengil atletika, T11 uzunlikka sakrash  
Elbek Sultonov - parayengil atletika, F12 yadro uloqtirish  
Xusniddin Norbekov - parayengil atletika, F35 yadro uloqtirish  
Quadratullaxon Ma'rufo'jayev - parayengil atletika, F37 yadro uloqtirish  
Bobirjon Omonov - parayengil atletika, F41 yadro uloqtirish  
Tolibboy Yo'ldoshev - parayengil atletika, F37 disk uloqtirish  
Yorqinbek Odilov - parayengil atletika, F57 nayza uloqtirish  
Nurxon Qurbonova - parayengil atletika, F54 nayza uloqtirish

Sherzod Namozov - paradyudo, J2 -60kg  
Asad Toshtemirov - parataekvondo, K44 -80 kg

### **KUMUSH MEDAL:**

Doniyor Saliyev - parayengil atletika, T12 uzunlikka sakrash  
Safiya Burxonova - parayengil atletika, F12 yadro uloqtirish  
Kubaro Hakimova - parayengil atletika, F41 yadro uloqtirish  
Shahina Yigitaliyeva - parayengil atletika, F46 nayza uloqtirish  
Kumushxon Xodjayeva - paradyudo, J2 -57 kg  
Ro'za Qo'ziyeva (MVSM) - parapauerlifting, -73 kg  
Ziyoda Isoqova - parataekvondo, K44 -47 kg  
Guljanoy Naimova - parataekvondo, K44 +65 kg  
Server Ibragimov - parao'q otish, P4 50 metrga to'pponchadan otish

### **BRONZA MEDAL:**

Temurbek Giyazov (MVSM) - parayengil atletika, T64 balandlikka sakrash  
Tolibboy Yo'ldoshev - parayengil atletika, F37 yadro uloqtirish  
Nurxon Qurbonova - parayengil atletika, F54 yadro uloqtirish  
Mohigul Hamdamova - parayengil atletika, F57 disk uloqtirish  
Uchqun Quronboyev - paradyudo, J2 -73 kg  
Dovurxon Karomatov - paradyudo, J2 -90 kg  
Muslima Odilova - parasuzish, S13 100 metr batterflay

Shu tariqa O'zbekiston parasportchilari Fransiyaning Parij shahrida o'tgan XVII Paralimpiya o'yinlarida 10 ta oltin, 9 ta kumush va 7 ta bronza, jami 26 ta medalga sazovor bo'ldi. Paralimpiyachilarimiz medallar jang'arish bo'yicha o'z tarixidagi eng yaxshi natijani qayd etib, umumjamoa hisobida 13-o'rinni egalladi. Ushbu natija bilan delegatsiyamiz Osiyo mamlakatlari orasida Xitoy va Yaponiyadan keyin uchinchi, shuningdek Markaziy Osiyo, Islom birdamligi va Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar orasida eng yaxshi ko'rsatkichga ega bo'ldi.

O'zbekiston parasportchilari Fransiyaning Parij shahrida o'tgan XVII Paralimpiya o'yinlarida erishgan natijasi o'tgan Paralimpiya o'yinlaridagi medallarni sifat bo'yicha ham ortda qoldirdi. Zero 2012-yili London shahrida bo'lib o'tgan XIV Paralimpiya o'yinlarida 10 nafar para sportchimiz ishtirok etib, bitta kumush medalni qo'lga kiritgan, 2016-yilgi Rio-de-Janeyro shahrida o'tgan XV Paralimpiya o'yinlarida 8 ta oltin, 6 ta kumush, 17 ta bronza, jami 31 ta, "Tokio - 2020"da 8 ta oltin, 5 ta kumush hamda 6 ta bronza, jami 19 ta medal jamg'arilgandi.

Para atletlarimiz "Parij - 2024" yozgi Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston Paralimpiyasi tarixida rekord ko'rsatkich delegatsiya, ya'ni birinchi marotaba 9 sport turida 65 nafar sportchi bilan 113 ta yo'llanmaga sazovor bo'lgan holda yo'l olgandi. XVII yozgi Paralimpiya o'yinlari oldidan poytaxtimizdagi Olimpiya va Paralimpiya shon-shuhrati muzeyida mazkur O'zbekiston delegatsiyasini tantanali kuzatish marosimi bo'lib o'tgandi. Marosimda Hukumat rahbarlari, Prezident administratsiyasi rasmiylari, Sport vazirligi, Milliy Olimpiya va Paralimpiya qo'mitalari rahbariyati

ishtirok etib, paralimpiyachilarimizga bo'lajak musobaqada muvaffaqiyatli ishtirok etib, yurtimizga yorug' yuz bilan qaytib kelishlarini tilagandi. Ushbu ishonchni oqlagan XVII yozgi Paralimpiya o'yinlari qahramonlari 9 sentabr kuni yurtimizga qaytib keldi. Matonat sohiblari Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida tantanali kutib olindi. Tadbirda Hukumat rahbarlari para atletlarimizni erishgan zafarlari bilan qutlab, ular bugungi kunda Vatanimizning faxri ekanini, hozirda barcha yoshlarga o'rnak bo'lib turganini alohida ta'kidladi. O'z navbatida, uch karra Paralimpiya o'yinlari chempioni Xusniddin Norbekov hamda oltin medal sohibi Asila Mirzayorova, murabbiy Sardor Abduxolliqov, shuningdek chempionlarning ota-onalari so'z olib, davlatimiz rahbarining bunday e'tiboridan mamnun ekanini bildirdi. Shundan so'ng elimiz ardog'idagi san'atkorlar o'zlarining vatanparvarlik to'g'risidagi ajoyib kuy-qo'shiqlari bilan yig'ilganlarning kayfiyatini yanada ko'tardi.

Tadbirning ikkinchi qismi Milliy Paralimpiya qo'mitasida tashkil etildi. Unda "Parij - 2024" yozgi Paralimpiya o'yinlari qahramonlariga davlat rahbarining sovg'alari topshirildi. Prezident qaroriga muvofiq:

- oltin medal sohiblari "Chevrolet Tahoe" avtomobili, 200 ming AQSh dollari va xonadon;
- kumush medal sohiblari "BYD Song Plus EV Champion" avtomobili, 100 ming AQSh dollari va xonadon;
- bronza medal sohiblari "BYD Song Plus DM-I Champion" avtomobili, 50 ming AQSh dollari va xonadon bilan taqdirlandi.

Taqdirlash marosimida so'z olgan sportchilarimiz davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan bunday e'tibor va g'amxo'rlikdan judayam xursand ekanini, kelgusida ham yangi zafarlar bilan jonajon Vatanimiz dovrug'ini dunyoga tanitish yo'lida bor kuch-g'ayratini ishga solishini bildirdilar.





## ADABIYOT MALIM

Ikki tumanni bir-biriga bog'lovchi kattagina yo'lning ikki tomoni mashinalarga to'lib ketibdi. O'rtada ikki mashina zo'rg'a sig'adigan joy bor. Yaqinlashganimizda qishloqdan chiqish yo'lida turgan ichki ishlar xodimi "to'xtash" ishorasini berdi. E'tibor berib qaragam, nariroqda katta yo'l yoqasida oynavandli do'kondan boshqa narsa ko'rinmadi. Oddiygina qishloq. Katta-katta, dovrugli oshxonalar ham yo'q. Kunning issig'ida mashinada kutib o'tirishga toqatim yetmadi.

– Huv o'sha do'konga kirib, nima gapligini bilib kelaman, – dedim jiyanimga, – do'konchilar hamma narsadan boxabar bo'ladi. Mashinalar qo'zg'alib qolsa, meni o'sha do'kon oldidan olasan. Ammo bu mashinalar hali-beri qo'zg'aladiganga o'xshamayapti, birortasida na haydovchi, na yo'lovchi bor.

– Amma, nima bo'layotganidan bexabar qolsangiz nima bo'ladi? – deb jiyanim meni to'xtatmoqchi bo'ldi.

– Kattalarning ishiga aralashmay, aytganimni qilib kutib tur, – dedim-da, do'konga qarab yurdim.

Shu payt qishloqdan daryodek oqqan odamlar oqimi bilan tobut lopillab chiqa boshladi. Katta ko'cha odamlar bilan to'lib ketdi. Ulug' bir inson olamdan o'tganga o'xshaydi. Oqim ortidan hayron boqib do'konga kirib bordim. Ichkarida ikki o'rim sochining tagidan ro'mol tang'ib olgan qiz o'tirgan ekan. Ko'zlari nam, tobut ortidan ma'yus boqib turibdi.

O'lgan odamning kimligiga battarroq qiziqdim. Meni ko'rib, ko'zlarini shosha-pisha artib, "keling", dedi. Quruq chiqib ketmaslik uchun muzlatkichdan suv oldim, boshqa narsalarga qaragan kishi bo'lib, sotuvchi qizni gapga tutdim:

– Olamdan o'tgan kishi amaldormidi, odamlar daryodek oqib kuzatyapti?

– Yo'o'q, – dedi qiz ovozi xiyol titrab, – adabiyot malimi edilar, maktabda ona tili va adabiyotdan dars berganlar.

– Qattiq xafa ko'rinasiz, qarindoshlik tomoni ham bormi deymen?

– U kishi o'qituvchim edilar... Xuddi otadek mehribon. Hamma-hamma u kishini yaxshi ko'rardi. Darslarini sog'inib kutar edik. Mening otam yo'q, eslolmayman hatto. Onam ukam

ikkimizni qiyinchilik bilan katta qildilar. Maktabda yaxshi o'qidim, o'tgan yili bitirdim. Universitetda o'qisam, degan orzularimni yuragimga yashirib, sotuvchilik qila boshladim. Yolg'iz onamga bola o'qitish og'irlik qilishini bilaman-ku. Ko'pchilik tengdoshlarim o'qiyapti hozir, ularga havasim keladi. Meniyam otam bo'lganida edi... Bir kuni adabiyot malimimiz uyimizga keldilar. Onamga meni o'qitish kerakligini, do'kon mening joyim emasligini, bilimimni uvol qilmaslikni kuyib-yonib tushuntirdilar. Onam: "Koshki, imkonim bo'lsa", deb yig'lab yubordilar. "Yo'qchilikdan qo'rqmay, qizingni o'qishga yubor, meni aytdi, dersen, u eng yuqori ball oladi. O'zim o'qitganman, bilaman. Qizlarimni taniysan, olim ayollar, qizingni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi, o'g'illarimga ham tayinlayman, uni tashlab qo'ymaydilar. Agar bordi-yu, kontrakt bilan o'qishiga to'g'ri kelsa, pensiyamni berib bo'lsa ham, yordamlashaman. Menga biror gap bo'lgudek bo'lsa, o'g'il-qizlarim uni yolg'izlatib qo'ymaydi. Qizlar o'qishi kerak!" Shundan keyin ona-bola ikkovimiz dadillanib tayyorgarlikni boshladik. Yana qo'limga kitoblar oldim, o'qishga hujjatlarimni topshirdim, o'qituvchim eshitib, juda sevingan edilar, xuddi ota kabi, otam kabi...

Shu payt kassa apparati yonida turgan telefon ting'illadi. Qiz istar-istamas telefonni oldi. Va... bir zumdan so'ng ko'zlari katta-katta ochilib menga qaradi.

– O'qishga qabul qilinibman... eng yuqori ball bilan, – shunday deb baralla yig'lab yubordi.

Qarshimda xuddi o'z qizim turgandek hayajonlanib ketdim. Qizni bag'rimga bosib, tabrikladim.

– Ammaaa, – degan do'rillagan ovozdan o'zimga keldim, – nima bo'ldi, nega yig'layapsizlar?

Qarang, bu quvonchning yuqumligini, qizga qo'shib yig'layotganimni sezmayman ham. Yo'l ochilibdi, jiyanim shuni aytgani kiribdi.

Bu yo'ldan ko'p o'tib-qaytaman. Qabristonga hech e'tibor bermagan ekanman. Endi e'tiborli bo'laman. Chunki bu yer ota kabi fidokor bir muallimning so'ng manzili. Qabriston yo'lidagi izdihom ustida yolg'iz kemadek qalqib ketayotgan tobutga qarab, kaftlarimni yuragim ustiga qo'ydim.

Fasl almashdi. Unchalik sezilgani yo'q. Aslida sezildi. Shunchaki tan olgim yo'q. Chunki yoz faslini sevaman-da. Tunlar salqin, suvlar sokinlashib qoldi. Qaldirg'ochlarning vijir-vijiri eshitilmayapti. Turnalarning qaytish qo'shig'i qulog'imga chalinganida chap ko'ksim bir qalqib ketgandek bo'ldi. Hay, yana qaytishadi-ku, deb o'z-o'zimga tasalli berdim. Ammo... ular yana qaytgunicha kim bor, kim yo'q...

Ko'ngilga biroz huzun sorsa-da, kuzning tarovati ham betakror, ranglari bisyor.

## O'QITUVCHIMNING FARZANDI

Shahar chekkasida ochilgan yangi bog'ni aylanishga bordik. Ishga tushganiga ko'p bo'lmasdan birpasda gavjumlashibdi. G'ovur-g'uvurga uncha yo'qman. Chekkaroq joy qidirdim. Bo'sh o'rindiqqa bir nimadan quruq qolgandek tezgina borib o'tirib oldim. Bolalarim nariroqda o'ynoqlab yotgan favvorani tomosha qilgani ketdi. Orlaridan kuzatib turdim.

Shu payt juda-juda tanish ovoz eshitildi. Alanglab qidirishga tortindim. Atrofdagi g'ovur-g'uvurni ham unutib, quloq tutdim. Ovoz juda qadrdon. Mendan yigirma qadamlar narida sochlari kumushdek bir erkak oilasi bilan... Yo'q, yo'q, bo'lishi mumkin emas, odam odamga o'xshaydi-da. Ko'z uzolmay qoldim. Holatimdan uyalsam ham undan ko'z uzgim kelmay qoldi.

Ularga yana bir ayol qizchasi bilan qo'shildi. Qizaloq uzoqdan "bobojon!" deya yugurib kelib, erkakning bo'ynidan mahkam quchdi. Qizaloqni bag'riga bosib kuldi, "mastoncha kelibdi", deganida qanday qilib uning qarshisiga borganimni bilmay qoldim. Hammalari – katta-kichik menga ajablanib qarab qoldi. O'zimni qo'lga oldim va erkakka qarab:


– Uzr so'rayman, siz... siz birinchi o'qituvchim Faxri malimga ikki tomchi suvdek o'xshar ekansiz. Zovboshidagi boshlang'ich sinf o'qituvchisi. Ovozingiz, kulishingiz, ayniqsa "mastoncha" deb erkalashingiz... Bizni qizchaligimizda shunday erkalar edilar...

Erkak bag'ridagi qizchani sekin yerga qo'ydi va menga yaqinroq keldi.

– Siz otamni tanirmidingiz? – dedi xiyol titroq ovozda. – Men u kishining o'g'liman. Qarang, shunday ulkan shaharda olis tog'lar orasida o'qituvchilik qilgan otamni taniydigan odam qarshimdan chiqsa-ya?!

Shunday deb erkakning ko'zlaridan ikki tomchi yosh yumaladi. Shosha-pisha kafti bilan ko'zyoshini sidirib tashladi. Oilasini tanishtirdi, men o'zimni tanitdim. Biz bir necha lahzalar avval bir-birimizga butunlay yot odamlar edik. Birdaniga qadrdonlashdik. Bir-birimiz bilan gaplashadigan gaplarimiz shu qadar ko'p ediki... Shunday bo'lishi mumkinmi? Mumkin ekan. Otang, onang kabi mehr qo'yganing ustozlar oilasi senga begona bo'lmas ekan. Safimizga bolalarim ham qo'shildi.

Inobat NODIRSHOH



## Inson manzaralari

O'shanda kissasida olti yuz so'm bilan avtobusga chiqdi. Uyiga bordi-yu, kiyimlarini apil-tapil almashtirgan bo'ldi. Zo'r ishni tindirib kelganday, gilamga uzala tushib yotvoldi. Onasi, akalari, opalari uning kelgan yo kelmagani haqida bir-birovidan gap olayotgan kezdagi ovozlari qulog'iga yetib, yostiqlik boshiga yopdi.

Kech mahal dasturxon atrofidagi sukunat – qoshiqlarning kosaga tegib tiqirlashi, akasining piyoladagi choyni ho'rillatib ichishi yoki ovqatni chapillatib yeyishi... U cho'chidi. Hayiqdi. Og'rindi. Hali uning o'qishga ketish masalasi ochiq turibdi. Shunisi yomon-da! Odatga ko'ra pul kerak, deyiladi. Aslini olganda, pul hammaga kerak. Onaning o'qituvchilik va kechqurunlari tikish-bichishdan keladigan daromadi urvoqchalik bo'lsa qaniydi.

U shundog'am ikkala akasidan birining botinkasi, birining shimi yo kostyumi, bo'yinbog'i bilan mavsumdan mavsumga amal-taqal yetib olardi. Aksiga olib vaqti

## SOYA

bemahal qoqog'lab yotar tovuqlar tug'may qo'ydi. Harqalay tuxum berib turganida yo'l-yo'lakay bozorga kirib, ko'tarasiga sotardi-yu, yo'l haqini chiqarib olardi. Bir gal dasturxon atrofida onasining: "Oq tovug'imiz negadir ko'rinmaydi-ya, ishqilib it-pit ilib ketmagan bo'lsin-da", deb boshlagan gapi o'g'lining o'qishga ketish masalasiga borib taqaldi-yu, birovi do'rilladi, birovi yer depsindi. Onaning yuragi uvushdi. Qay biri eshikni qarsillatib yopganida xo'rliqi, yig'lagisi keldi.

Uning ko'zlariga tug'mayotgan tovuqlar baloday ko'rinib ketdi.

\*\*\*

Ertasiga azonlab tog'asi keldi. Ko'rmaysizmi, tog'a vaqt topib kelibdi. Yo'q, vaqtini topib kelibdi. Uzzukun paxsa tiklayotgan ustalar biror tansiqroq taomni tusab qolibmi, go'sht qolmaganidan kelibdi.

– Tog'angga xo'rozlaringdan eng kattasini tutib ber, – tayinladi ona. Ko'rsa, oq tovug'i katakning qay

tuynugidan chiqib, endi-endi qizg'ish tus olayotgan pomidorlarni cho'qilab yuribdi. Alami tarqab ulgurmagan edi, ko'zlarini tovuqdan uzmay engashdi. Mayda-mayda kesaklardan terib oldi. So'ng...

– Tug'mayotganlari yetmaganday, ko'ngillari pomidor tusab qoldimi?! Mana senga! Mana! Qanoting singur, mana yana!

Oq tovuq katakka quvildi. Kirmadi. Kisht-kishtlandi. Kira qolmadi.

– Mana, nimaga tovuqmiya ekansan? Pitirlaysan, tumshug'ing tagidagi eshikni topolmaysan!

Uning asabi qo'zigandan qo'zidi. Kesakning naq mushtday keladiganidan oldi-yu, bir ko'zini qisib mo'ljalladi. Otdi.

– Butun boshli uy qurarkan-u, go'sht topilmaydimi? Qozonga tushgani bilan shu zormandaning go'shti o'nta ustaga nimayam bo'lardi? Qiltiriq bo'lsa...

Kirarkansan-ku! – u tovuqxona eshigini ichkarisidan yopdi.

Yeng shimarib, qulochini yoydi. Quvladi. Tovular qochdi. Qoqog'ladi. Uchdi. Don-dunli idishlar ag'anadi. Chang ko'tarildi. Axiyri ushlendi. Onasi tayinlagan xo'roz emas, aynan o'shanisi – pomidorlarini cho'qilab yurgan oq tovuq ushlendi. Botinkasi bilan tovuqning qanotlarini qayirib bosdi. Oyoqlarini bir-biriga chuvalab bog'layotuvdi, qanotlari botinka tagidan sirg'alib chiqdi. Jimjilog'ini tilib yubordi. Oq tovuq xaltaga otildi. – Mang, doyi! So'yishni bilmayman...

\*\*\*

Kun peshinlab sigirlarning mo'rashi quloq-miyaga borib yetdi.

– Chanqagan emish. Bir paqir suv ichsang ham mayliydi, nafsingga o't tushgurlar, har biring to'rt-besh paqirlab ichasan.

Birinchi, ikkinchi chelakni quritib, tagini yalab-yulqaganidayam chidab turuvdi, uchinchisida tishlari g'ichirlab, barmoqlari o'z-o'zidan musht bo'lib tugildi. To'rtinchisida og'ilxona yonida o'sib turgan tutning ingichka uzun shoxini sindirib oldi-da, naq manglayiga soldi. Jonivor kallasini chelakdan sug'urib olib, orqaga tisarildi. Chiviq degani manglay qolib, ko'ziga tegdimi, bir tomchi yosh sizib, jonivorning o'ng chakkasini kesib o'tdi.

\*\*\*

U narvon osha tomga chiqdi – yem-xashak tashlagani. Somon uyumiga panshaxani har qadaganida ertaga o'qishga ketishi, pul kerakligi yodiga tushaverdi. Yodiga tushgani sayin jahli chiqaverdi. Jahli chiqqani sayin panshaxani uyumga qattiqroq uraverdi. Ter bosib hansiradi. Hansirab cho'kkaladi. Ana shunda somon tagidagi oppoq, yum-yumaloq bir to'da



tuxumga ko'zlari qadaldi-yu, yuziga qon yugurdi. Chehrasi yorishdi. Sanay ketdi:

– Bir, ikki, uch... o'n ikkita!

U panshaxani tomdan pastga otdi, narvondan sekin pastladi. Oshxonaga shoshdi. Tuxumlarni sovitkichga bittabittalab joyladi.

– Ikkitasini kechlikka qovurib yesam, tong sahar bozorga boraman. Pullayman-u, o'qishga ketaman!

\*\*\*

Gaz yoqildi. Tova qo'yildi. Yog' solindi. Sovitkich ochildi. Tuxumlardan ikkitasi olinib, bittasi chaqildi.

Qobig'idan doim silliqqina chiqadigan tuxumning oq-sarig'i bu safar negadir og'ir sirg'aldi. Jo'jaga aylanib kelayotgan suyuqlik lo'p etib tushdi-yu, tovada yoyilib ketdi. U bir sovitkichga, bir tovaga qarar, yana qo'lida qolgan tuxumga ham, boz ustiga, tong oqarmay xaltaga solib, tog'asiga berib yuborgan oq tovug'i – kurk tovug'i esiga keldi. Peshonasiga urdi:

– Tovuqmiya!

\*\*\*

Kun tunga cho'kdi. Tun uyga cho'kdi. U esa xayolga... ko'rpaga cho'kdi. Bu mahal ro'para xonada o'tirgan o'ychan bir Soya g'amga cho'kdi. Soya xonalarga sig'may ketdi. O'tirib o'tirolmadi. Turib turolmadi.

Chora izladi. Yurdi. O'tdi. Qaytdi. Chora izladi...

Tikuv mashinasi oldida bo'ldi.

Yengi bilan siladi. Yig'lab-yig'lab siypadi. Manglayini bosdi. Iplaridan bo'shatdi. Qo'ltiqalab oldi. Pol taxtalari g'ichirlamasin, deb bolaginasini yotgan ayvondan oyoq uchida o'tdi...

\*\*\*

Kun oqardi. U tura solib o'qishga kech qolishi mumkinligi haqida o'yladi. Qizib turgan yog'ga lo'p etib tushgan palag'da tuxum, har bittasi to'rt-besh paqir suv ichadigan sigirlar, paxsa tiklayotgan ustalarning tansiqroq yemishiga aylangan oq tovug'i xayolidan o'tdi-yu, uh tortib xo'rsindi. Xo'rsinib uh tortdi. Ko'rpsini bosh uchidan qayta oshirib oldi. Ana shunda shamoli yetdimi yoki qo'llari yostiqlikdan teparoqda turgan qog'ozlarga tegib ketdimi, bir siqim pul gilamni yuzalab-yuzalab uchdi. Gilamdan sal teparoqda pirillab-pirillab uchdi...

Akmal MUROD

## Yong'in xavfsizligi



Ob-havo haroratining pasayib borishi natijasida gaz va boshqa turdagi muqobil yonilg'i isitish moslamalaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj ortib boradi.

Bunday paytlarda isitish moslamalaridan noto'g'ri foydalanish oqibatida ko'ngilsiz hodisalar sodir bo'lishi hamda insonlar is gazidan zaharlanishi mumkin.

Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish maqsadida gaz uskunalarini va isitish moslamalaridan foydalanishda quyidagi yong'in va xavfsizlik talablariga rioya qilishingizni so'raymiz:

qo'lbola va nosoz gaz isitish moslamalaridan foydalanmang;

tungi vaqt aholi turarjoylarida o'rnatilgan isitish tizimini nazoratsiz qoldirmang;

oshxonada o'rnatilgan tabiiy gazda ishlovchi gaz plitalaridan xonalarni isitmang;

isitish pechlari va mo'rilarining sozligiga, turli buyum va to'siqlar bilan berkitilmasligiga hamda tegishli tashkilotlar tomonidan o'z vaqtida tozalanishiga alohida e'tibor bering;

isitish moslamalari yaqinida yonuvchan buyumlarni saqlamang;

isitish moslamalaridan foydalanishda ularni ishlab chiqargan korxonaning tavsiya va yo'riqnomasi talablariga rioya qiling; gaz uskunalarini ulash tartib-qoidalariga rioya qiling va ularga rezina shlanglar orqali ulanishga yo'l qo'ymang;

agarda xonada gaz hidini sezsangiz, chiroq va uchqun chiqaruvchi moslamalardan aslo foydalanmang, darhol xonani shamollating hamda gaz xizmatiga zudlik bilan xabar bering.

Ushbu qoidalarga rioya etish bilan siz o'zingiz va yaqinlaringizni hamda uy-joyingizni ko'ngilsiz hodisalardan asragan bo'lasiz.

**Podpolkovnik**  
**Baxtiyor ERGASHEV,**  
**Farg'ona garnizoni yong'in**  
**nazorati inspeksiyasi boshlig'i**

# Navbatdagi hamkorlik



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashida Turin politexnika universiteti vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Unda "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan xarid qilinishi kutilayotgan yuk avtomobillarining texnik xarakteristikasi ushbu universitetning malakali mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilishiga doir masalalar muhokama qilindi. Uchrashuv yakunida tashkilot uchun sotib olinishi rejalashtirilayotgan tirkamali yuk avtomobillariga qo'yiladigan talablar universitet mutaxassislar tomonidan zamonaviy standartlarga mos ravishda tayyorlanishi hamda ular asosida transport vositalari ishlab chiqarilishi bo'yicha Samarqand viloyatidagi

"Foton" va "Isuzu" avtomobil zavodlariga buyurtma berilishiga kelishib olindi. "Vatanparvar" tashkilotining respublika bo'ylab faoliyat yuritayotgan 200 dan ortiq o'quv muassasasi uchun bosqichma-bosqich ravishda mingdan ortiq yuk avtomobili xarid qilinishi va ushbu transport vositalaridan "BC", "C", "CE" toifalari bo'yicha tahsil olayotgan fuqarolar amaliy mashg'ulotlarda foydalanishi kutilmoqda. Ma'lumot uchun, "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasalarida fuqarolar 33 yildan buyon haydovchilikning barcha

toifalari bo'yicha o'qitib kelinadi. Bundan tashqari, 2023-yilning sentabr oyida "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi va Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi o'rtasida imzolangan hamkorlik memorandumiga asosan, xorijda vaqtincha yuk mashinasi haydovchisi sifatida ishlash istagida bo'lgan fuqarolar tashkilot o'quv muassasalarida "CE" toifalari bo'yicha o'qitilmoqda.

**O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati**

# Daxldorlik hissi

Toshkent harbiy prokuraturasi tomonidan olis hududlarda joylashgan umumta'lim maktablarida, shuningdek harbiy akademik litseylarda muntazam ravishda prokurorlik soatlari o'tkazib kelinmoqda.

Mashg'ulotlarning navbatdagisi Milliy gvardiyaga qarashli Toshkent "Temurbeklar maktabi"da o'tkazildi. Unda Vatanga muhabbat va sadoqat, el-yurt taqdiriga daxldorlik hissi, faol fuqarolik pozitsiyasi, milliy armiyamiz shakllanishi va uning zamonaviy imkoniyatlari xususida so'z yuritildi.

Shu bilan birga, Konstitutsiya va qonunlarga hurmat, huquqbuzarlik tushunchasi va uning turlari, ularga qarshi murosasizlik bilan kurashish masalalarida nazariy bilimlar berildi.

Muloqot davomida o'quvchilar mavzu doirasida o'zlarining fikr-mulohazalari va jonajon xalqimiz, ona Vatanimizga sadoqat bilan xizmat qilish yo'lidagi ezgu maqsadlari bilan o'rtoqlashdi.

Tadbir savol-javoblarga boy bo'ldi.

**Adliya mayori Otabek G'OFUROV, Toshkent harbiy prokuraturasi katta tergovchisi**

## Profilaktika

# Huquqbuzarliklarga qarshimiz!

Termiz harbiy prokuraturasi tomonidan Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni doirasida qator huquqiy targ'ibot tadbirlari amalga oshirildi.

Angor tumani qo'riqlash bo'limi shaxsiy tarkibi bilan o'tgan muloqotda korrupsion jinoyatlar haqida suhbatlashildi. Unda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun mazmun-mohiyati va ahamiyati, korrupsiya va unga oid huquqbuzarlik, manfaatlar to'qnashuvi tushunchalari haqida so'z yuritildi.

Ta'kidlanganidek, shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolar, tashkilotlar, jamiyat yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlarini o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat manfaatlar to'qnashuvi hisoblanadi.

Shuningdek, muloqot davomida qonunda nazarda tutilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar, tashkilotlar hamda ularning vakolatlari haqida ma'lumotlar berildi. Shu kabi Termiz garnizonida joylashgan harbiy qismlarning birida o'tkazilgan profilaktik tadbir friribgarlik va u bilan bog'liq jinoyatlar, ularning salbiy oqibatlari, qonunchilikda mazkur qilmishlar uchun belgilangan javobgarlik xususida bo'ldi.

Unda bugungi kunda jamiyatda zamonaviy axborot texnologiyalari orqali sodir etilayotgan jinoyatlar haqida atroficha tushunchalar berilib, ularning qurboniga aylanib qolmaslik borasida amaliy tavsiyalar berib o'tildi.

**Adliya polkovnigi Sherzod MIRZAYEV, Termiz harbiy prokurori**

## Reklama

# KURS VA TO'GARAKLARIMIZ SIZGA MUNTAZIR!

**O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi Urganch tumani o'quv sport-texnika klubi haydovchilik kasbini egallamoqchi bo'lganlarni**



"A", "B", "BC", "BE", "CE" hamda "D" toifali haydovchilik kurslariga o'qishga, shuningdek sportning texnik va amaliy turlari - "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon" hamda "Aviamodel" kabi seksiya va to'garaklarda shug'ullanishga taklif etadi.

Ayni paytda zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan qayta jihozlangan mazkur klubda avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash jarayoni malakali mutaxassislar tomonidan olib borilishi kafolatlanadi. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar bilan shug'ullanish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

**Hurmatli yoshlar!**

Agar siz yuqorida aytib o'tilgan kurs va to'garaklarda ta'lim olishni istasangiz, bunda sizga "Vatanparvar" tashkiloti ko'makdosh bo'lishini unutmang!



**Urganch tumani Navro'z shaharchasi, Mustaqillik ko'chasi, 10-uy.**



**91 430-55-56.**

# Oziq-ovqat mahsulotlarini muzlatkichda saqlash qoidalarini

Faqat yangi tayyorlangan taomlarni iste'mol qilish yaxshi albatta, lekin hozirgi zamonda har doim ham bunga vaqt bo'lavermaydi. Tayyor ovqat buyurtma qilish esa qimmatga tushadi. Yaxshisi, oziq-ovqat mahsulotlarini muzlatkichda saqlagan ma'qul, ammo ularni to'g'ri saqlash va muddatiga amal qilish juda muhim.



To'g'ri ovqatlanish va yangi tayyorlangan sog'lom ovqatlar iste'moli sog'liq hamda uzoq umr ko'rish kalitidir. Har doim ham tayyor ovqat va mahsulotlarni muzlatkichda to'g'ri saqlash qoidalariga amal qilavermaymiz.

## Ortiqchasini muzlatkichda saqlamang!

Sovitkichdagi bo'sh joyni ortiqcha ovqatlar bilan to'ldirmaslikka harakat qiling, chunki bo'sh joy qancha ko'p bo'lsa, havo shunchalik yaxshi aylanadi (bu mahsulotning yaxshi saqlanishi uchun muhimdir).

## Qanday mahsulotlarni muzlatkchsiz saqlash mumkin?

- Sarimsoq, piyoz;
- qovoq, kartoshka (bu mahsulotlar past haroratda tez chiriydi);
- asal, murabbo;
- non (hidlarni o'ziga tez tortadi);
- shokolad (oppoq qatlam qoplanadi);
- zaytun yog'i;
- konservalar;
- banan (tezda qorayib qoladi);
- tropik mevalar;
- baqlajon, pomidor, bodring (tarkibida suv miqdori ko'p).

## Mahsulotlar tegishli joyda saqlanishi lozim

Oziq-ovqatlarni saqlashning harorat rejimi qoidalariga rioya qilish uchun hamma mahsulotlarni o'z javoniga qo'yish lozim. Chunki sovitkichning turli qismlaridagi harorat farq qiladi.

Muzlatkichning harorati yuqori bo'lgan qismi eshigidir. Bu yer tez buzilmaydigan mahsulotlarni saqlash uchun mo'ljallangan: sous, ichimlik va ziravorlar. Odatda, tuxumni ham muzlatkich eshigida saqlaymiz, ammo bu to'g'ri emas. Eshik ochilganda haroratning o'zgarishi uning saqlash muddatiga ta'sir qiladi. Yuqori javonlar go'sht, baliq, sut kabi tez buziladigan mahsulotlarni saqlash uchun mos keladi. Plastik javonlarda tayyor va yarim tayyor mahsulotlarni saqlagan ma'qul. Pastki tortmalar esa meva va sabzavotlar uchun mo'ljallangan bo'ladi.

MUZLATKICHDA SAQLASH JOYI	MAHSULOT
Eshigida	Ichimliklar, sous, dori-darmon
Yuqoridagi javonda	Tvorog, sut, pishloq, go'sht, tuxum, sariyog', dengiz mahsulotlari
Ikkinchi va uchinchi javonlarda	Pishiriqlar, tayyor mahsulotlar, salatlar, dudlangan mahsulotlar
Pastki qismida	Meva va sabzavotlar, rezavorlar

## Muzlatkichni vaqti-vaqti bilan tozalash

Sovitkich javonlarini haftasiga kamida bir marotaba artib, tozalab turish lozim. Mahsulotlarning saqlash muddatini ko'zdan kechirib, joylash muhim.

## Mahsulotlarni to'g'ri joylashtiring!

Muzlatkichda oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashning yana bir muhim qoidasi to'g'ri qadoqlashdir. Qadoqlash mahsulotdagi namlikni saqlashga yordam beradi, uni qurib qolish va mog'ordan himoya qiladi.

Oziq-ovqatlarni sellofanda saqlamaslikka harakat qiling. Chunki unda bakteriyalar juda tez ko'payadi. Dudlangan go'sht, pishloq, kolbasa hamda pishirilgan mahsulotlar uchun pergament qog'oz juda qulay va xavfsiz. Tayyor taomlar, baliq, kotletlarni folga qog'ozni yaxshi saqlaydi. Sut va sut mahsulotlarini shisha idishda saqlash maqsadga muvofiq. Ko'katlarni qopqog'i yopiladigan bankaga solgan ma'qul. Bundan tashqari, muzlatilgan va sovitilgan mahsulotni birga saqlamang. Quruq va ho'l mahsulotni yonma-yon qo'yish mumkin emas (quruq taomlar namlikni o'ziga tez tortadi). Tayyor ovqatni

xom go'sht yoki baliq yonida saqlash mumkin emas.

Mahsulotlarni sovitkichda saqlash muddatiga e'tibor qiling. Bu sog'liq uchun muhim. Yangi sut 36 soatdan ko'p bo'lmagan, qaynatilgani esa 72 soatgacha saqlanadi. Smetana 3 kun, pishloq va sariyog'ni 15 kungacha saqlash mumkin. Go'shtli taomlar, qovurilgan baliqni 48 soat; sho'rvalar 24 soat; pishiriqlar 12-24 soatgacha; mayonez, smetana va go'shtli salatlarini 6-12 soatgacha saqlash mumkin.

Meva va sabzavotlarni to'g'ri saqlash uchun ularni yuvmaslik tavsiya etiladi. Shunda ular yaxshi saqlanadi.

Sog'lig'ingizga e'tiborli bo'ling!

## Pazanda

# Xurmoning foydali xususiyatlari

Xurmo ajoyib ta'mga ega bo'lish bilan birga foydali xususiyatlarga ham boydir. Uning tarkibidagi beta-karotin, minerallar, antioksidantlar, A, C, B vitaminlari, kalsiy, fosfor va boshqa foydali moddalar salomatlik uchun muhimdir. Xurmo qarish jarayonini sekinlashtiradi, saraton rivojlanish ehtimolini kamaytiradi. Immun tizimini qo'llab-quvvatlaydi, yurak-qon tomir kasalliklaridan himoya qiladi. Bundan tashqari, bu shifobaxsh meva ko'z salomatligi uchun ham nihoyatda muhim. Tarkibidagi B<sub>6</sub> vitamini ovqat hazmi uchun juda foydalidir.



Qish oyi boshlanguncha do'kon rastalarini yorqin rangi bilan bezab turuvchi mevani xoh qattiq, xoh juda pishgan, yumshoq holda iste'mol qilish mumkin. Xohlasangiz uni bo'laklarga bo'lib, muzlatkichga qo'ysangiz ham bo'ladi yoki undan mazali murabbo tayyorlab, yaqinlaringizni xursand qiling.

## Limonli xurmo murabnosi



Aziz bekajonlar, bugun sizlarga nonushta uchun xurmoli murabbo tayyorlashni o'rgatamiz.

### Kerakli masalliqalar:

- xurmo – 800 g
- shakar – 350 g
- limon – 1 dona
- suv – 150 ml

**Tayyorlanishi:** xurmoni yuvib, tozalab, bo'laklarga bo'lib, ustidan shakar solamiz va 2 soatga qoldiramiz. Limonni yuvib, kichik to'rtburchak shakllarga bo'lib olamiz va ustidan qaynoq suv quyib, 3 daqiqa davomida qaynatamiz. So'ngra xurmoni solib, 100 ml suv quyamiz va past olovda tayyor holga kelguncha pishiramiz.

### Yoqimli ishtaha!

## 16-sentabr – Xalqaro ozon qatlamini himoya qilish kuni

Atmosferadagi ozonning 3 millimetr qalinlikda ekanini inobatga olsak, uning Yerdagi firik mavjudot uchun foydasi unchalik ham katta emasdek tuyuladi. Ammo o'sha yupqa qatlam bo'lmish ozon bo'lmaganida edi, yerda hayot ham bo'lishi dargumonligini olimlar ilmiy asoslab bergan. Eng asosiysi, qatlamdagi tuynuk yoki yoriqlarning paydo bo'lishi oqibatida bir necha turdagi kasalliklarning avj olishi ham dunyo hamjamiyatining e'tiborini tortgani rost. Bizni bunday halokatli oqibatlar qanchalik afsuslantirmasin, qatlamdagi tuynuklarning asosiy sababchisi yana o'zimiz bo'lib chiqmoqdamiz.

# Inson o'zing, hayron o'zing...

Sayyoramizning atmosferasi beshta asosiy qatlam: troposfera, stratosfera, mezosfera, termosfera va ekzosferadan iborat. Ularning barchasi tarkibi, zichligi va haroratida farqlanadi. Ozon qatlami stratosferaning bir qismi bo'lib, u Yer sathidan taxminan 20–30 kilometr balandlikda joylashgan. Ozon qatlamining asosiy vazifasi barcha tirik mavjudotlar uchun halokatli bo'lgan Quyoshning qisqa ultrabinafsha nurlaridan himoya qilishdir. Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, ushbu zararli nurlarning 97-99 foizini aynan ozon qatlami o'zida tutib qolar ekan.

## Ozon qatlami nima?

Ozon qatlami Yer atmosferasida 500–600 million yil oldin, fotosintez tufayli unda yetarli miqdorda kislorod to'plangani bois shakllangan, bu esa tirik mavjudotlar uchun qulay tabiiy shart-sharoit yuzaga kelishini ta'minlagan, avval o'simliklar, keyin hayvonot dunyosi rivojlangan.

Ozon qatlami tushunchasini fanga ilk bor fransuz fiziklari Charlz Fabrri va Anri Buisson kiritgan. 1912-yilda ular ultrabinafsha nurlanishining spektroskopik o'lchovlaridan foydalanib, atmosfera qatlamlarida ozon borligini isbotlab bergan. Keyinchalik Venus Express orbital zondi orqali Quyosh sistemasidagi boshqa sayyoralar, xususan Venerada ham ozon qatlami borligi aniqlandi.

Aslida ozon konsentratsiyasi qanchalik yuqori bo'lsa, u biologik organizmlarni Quyoshning zararli nurlaridan shunchalik yaxshi himoya qiladi. Kimyoviy nuqtayi nazardan qaraganda ozon – bu molekulasi uchta kislorod atomidan tashkil topgan modda bo'lib, kislorodga Quyoshning ultrabinafsha nurlari ta'sir etishi natijasida yuzaga keladi.

## Ozon qatlami yemirilishida freonning ta'siri

Olimlar ozon qatlamining yupqalashishi haqida birinchi marta 1957-yilda gapira boshlagan. Qutb qishining oxiri va bahorning boshida ozon qatlami pasayadi, qutbli yoz boshlanganidan keyin esa ko'payadi. Maishiy aerozollar, ko'pikli izolyatsiyalash vositalari va muzlatkichlarda ishlatiladigan freonlar ozon qatlamiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Freonlar atmosferaning yuqori qatlamlariga ko'tarilganda, ultrabinafsha nurlanish ta'sirida ulardan xlor atomi ajralib chiqadi va ozon molekularini birin-ketin kislorodga aylantira boshlaydi. Xlor atmosferada 120 yilgacha qolishi mumkin va bu vaqt ichida u 100 minggacha bo'lgan ozon molekulasini yo'q qilishi mumkin. 80-yillarda jahon hamjamiyati freon ishlab chiqarishni qisqartirish choralarini ko'ra boshladi.

Freonning ozon qatlamining yemirilishiga ta'sir qilishi 1995-yilda tadqiqotchilar Pol Krutsen, Mario Molina va Shervud Roulend tomonidan isbotlangan. Buning uchun ular Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan edi.

## Global isish

Hamma olimlar ham global isish borasida bir fikrda emas. 1995-yilda BMTning Madrid konferensiyasida isish ilmiy fakt sifatida tan olingan bo'lsa-da, ba'zilar buni haligacha afsona deb hisoblab, o'z dalillarini keltirmoqda. Eng keng tarqalgan ilmiy nuqtayi nazarga ko'ra, global isish haqiqatdir va inson omili sabab yuzaga kelmoqda. Bunda ozon qatlamining yupqalashishi muhim rol o'ynaydi. Oxirgi kuzatuvlardan ma'lum bo'lishicha, shimoliy daryolar avvalgidan o'rta 2 hafta kamroq muzlagan. Bundan tashqari, muzliklarning erishi davom etmoqda.

## Ozon qatlami qanday tiklanadi?

Butunjahon meteorologiya tashkiloti mutaxassislari 2000-yildan buyon Yerning ozon qatlami aerozollar va sovitkichlardan foydalanish natijasida unga yetkazilgan zarami tiklamoqda. Qayta tiklash har o'n yil ichida 1-3 foizni tashkil qiladi. Bunday tezlikda Shimoliy yarim shardagi ozon qatlami 2030-yillarga borib, butun sayyorada esa 2060-yilga kelib to'liq tiklanadi.

## Nega aynan Antarktida?

1985-yilda olimlar Antarktida ustida diametri 1 000 kilometrdan ortiq bo'lgan ozon tuynugini kashf etgandan so'ng

insoniyat ozon qatlamini himoya qilish haqida tashvishlana boshladi. 1987-yil 16-sentabrda Monreal protokoli imzolandi, unga ko'ra, ozon qatlamini buzadigan moddalarni ishlab chiqarish taqiqlandi. 1992-yili Birlashgan Millatlar Tashkiloti qaroriga ko'ra, 16-sentabr – Xalqaro ozon qatlamini himoya qilish kuni sifatida keng nishonlanishi belgilandi. Monreal protokoli freonlarni ishlab chiqarishni taqiqlaydi, bu kelishuv 200 dan ortiq mamlakat tomonidan imzolangan.

Keyinchalik bunday tuynuklar ozon qatlamida ko'pligi, ular vaqti-vaqti bilan paydo bo'lishi, ma'lum muddatdan keyin o'z-o'zidan bitib ketishi aniqlandi. Yaqin vaqtgacha ozon qatlamining yemirilishi Antarktidada eng kuchli edi. Olimlarning ta'kidlashicha, agar quyosh nurlari bo'lmasa, ozon hosil bo'lmaydi. Uzoq qutbli tun ozon molekularining doimiy ravishda yo'q qilinishiga va yangilari paydo bo'lmasligiga olib keladi.

## Ozon qatlamining buzilishiga nima sabab bo'ladi?

Sanoat korxonalarida tozalash inshootlari bo'lmagan zavod va fabrikalar, mineral o'g'itlar, issiqlik elektr stansiyalari, yadro portlashlari, kosmosga raketalar uchirish, reaktiv samolyotlar va vulqonlarning otilishi ozon qatlamining yemirilishiga olib kelishi aniqlangan.

Ozon teshiklarining yuzaga kelishining ikki asosiy sababi ilgari surilgan: tabiiy va antropogen. Ma'lumki, ozon qatlami hali kashf qilinmagan, sanoat rivojlanmagan zamonlarda ham unda tabiiy yo'l bilan tuynuklar yuzaga kelgan. Bunga esa Yerning shimoliy va janubiy qutblaridagi tabiiy jarayonlar sabab bo'lgan.

Ozon qatlami quyosh nurlari va kislorodning sintezi tufayli paydo bo'ladi. Ma'lumki, Arktikada qish payti, Antarktidada esa yoz oylarida quyosh nuri miqdorining kamayishi ozon qatlamiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi va unda turli teshiklar paydo bo'ladi. Quyosh nuri oqimining ko'payishi esa bu tirqishlarning o'z-o'zidan bitib ketishiga sabab bo'ladi.

## Agar ozon qatlami yo'qolsa, nima bo'ladi?

Ozon qatlami tirik organizmlarning nurlanishdan himoya qilgani sabab uning yo'q bo'lib ketishi DNK molekularining yo'q qilinishiga olib keladi, bu hayvonlar va odamlarda hujayralar bo'linishi, mutatsiyalar, teri saratoni, katarakta va zaif immunitetga olib keladi. Bundan tashqari, tirik organizmlar to'g'ridan to'g'ri quyosh nuri ta'sirida bir necha soniya ichida kuyishga duchor bo'ladi.

## Ozon qanday hosil bo'ladi?

Ozon – kislorodning uch molekulari modifikatsiyasi bo'lgan o'tkir, o'ziga xos hidli ko'k gaz. Sovitganda u to'q ko'k rangli suyuqlikka aylanadi va keyin qora kristallarga aylanadi. Atmosferada ozon juda kam – har bir kubometrda bu gazning atigi 0,6 kub santimetri bor.

Atmosferaning yuqori qatlamlarida ozon qattiq ultrabinafsha nurlanish natijasida hosil bo'ladi. Biroq u Yerda ham hosil bo'ladi, masalan, elektr razryod ta'sirida havodan. Kuchli momaqaldiroqlardan keyin atmosferada ozon konsentratsiyasi ortadi.

## Ozon qanday ishlatiladi?

Ozon kuchli bakteritsid ta'sirga ega – u xlor va marganes peroksid kabi moddalardan olinadi. Shuning uchun kiyim-kechaklarni, asbob-uskunalarini sterilizatsiya qilish va dezinfeksiya qilish, shuningdek ichimlik suvi va chiqindilarni tozalash uchun ishlatiladi.

Oziq-ovqat omborlarida havoning ozonlanishi tovarlarning xavfsizligini sezilarli darajada oshiradi. Agar siz sanoat binolarining ventilyatsiya tizimlariga minimal miqdorda ozon qo'shsangiz, nafas olish kasalliklarining tarqalishini keskin kamaytirishga erishishingiz mumkin. Bundan tashqari, mutaxassislar astronomiyada ozonni raketa yoqilg'isining tarkibiy qismi sifatida ishlatishga harakat qildi.

Internet ma'lumotlari asosida  
Sherzod SHARIPOV tayyorladi.

@Vatanparvargazetasi\_bot  
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati  
bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING  
ELEKTRON SHAKLI

VATANPARVAR

MUASSIS



O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MUDFAA  
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev  
polkovnik Otabek Yuldashev  
polkovnik Alisher Boboxonov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 71 260-36-50  
buxgalteriya: 71 260-35-20  
yuridik bo'lim: 71 260-29-41  
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: kapitan Bobur Elmurodov

Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva  
Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-5821  
Hajmi: 6 bosma taboq  
Bichimi: A3  
Adadi: 33 893 nusxa  
Bosishga topshirish vaqti: 14:00  
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.  
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqib boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.  
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:

100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.